


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA SAN’AT FAKULTETI

BOBOYEVA DILDORA BEKNAZAROVNA

**O‘zbek adabiyoti kafedrasining
5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha**

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV- MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi”

Ilmiy rahbar: f.f.n. S. Kurbanova


Urganch – 2015 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI


Filologiya va san‘at fakulteti

“O‘zbek adabiyoti” kafedrası

“TURKIY XALQLAR TOPISHMOQLARI TIPOLOGIYASI”

Bajaruvchi: 

Dildora Boboyeva

Rahbar: 

f.f.n. Saida Kurbanova

Urganch 2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va san'at

**“O‘zbek adabiyoti” kafedrası
BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO‘YICHA
TOPSHIRIQLAR REJASI:**

1. **Talaba Boboyeva Dildoraga** Universitet rektorining “21132” sonli 13.811 2014 yil buyrug‘i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi” mavzusi tasdiqlangan.
2. **Kafedra majlisining qaroriga binoan f.f.n. S.Kurbanova** bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.
4. **Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, mavzuga oid ilmiy-nazariy, badiiy asarlardan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, maqola va monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>Nº</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash	2014 yil iyul
2.	Materiallar izlash	2014 yil sentyabr
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2014 yil oktyabr
4.	I bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2015 yil yanvar
5.	II bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2015 yil mart
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2015 yil aprel
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2015 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: *Saidova*

f.f.n. Saida Kurbanova

Bajaruvchi talaba:

Boboyeva


Boboyeva Dildora

201 4 yil « 3 » sentabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida (201 4 4.6) tasdiqlandi
(« 2 » - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. D. G'ayipov


(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARNING MULOHAZALARI

Talaba: Boboyeva Dildora

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: "Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi"

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 82 sahifa

Tushuntirish qismi: 57 sahifa

Ilovalar soni: 15

Mavzuning dolzarbligi: Xalq ijodiyoti asarlari eng qadimgi davrlardan beri insoniyatning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilib kelgan. Xalqning urf-odatlarini, hayotiy qadriyatlarini uning qadimiy adabiy merosi bo'lgan og'zaki adabiyotida o'z aksini topadi.

Og'zaki adabiyotning eng qadimiy va ommaviy janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr har bir xalqning ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'zida to'la-to'kis qamrab oladi. O'zbek topishmoqlarini qardosh turkman, qoraqalpoq xalqlari topishmoqlari bilan qiyosiy-tipologik tarzda milliy-istiqlol mafkurasi asosida tadqiq qilish, ularning genetik asoslarini yoritish, har bir xalq topishmoqlariga xos umumiylik va alohidaliklarni ochib berish ishning dolzarbligini ko'rsatadi.


Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Boboyeva Dildora barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Talaba mustaqil ishlay olish, mahsus adabiyotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil fikrlashga layoqatli, yangilikka


intiluvchan, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Atrofdagilar bilan muomalasi yaxshi, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Ishda turkiy xalqlar ijodida uchraydigan umumiy va xususiy topishmoqlar tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlangan va ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan. Bundan tashqari, turkiy xalqlar ijodidagi topishmoqlarning ma'nodoshlik (sinonimlik) xususiyati, topishmoqlar badiiyati, ularning leksik-sintaktik qurilishi, ma'no turlari kabi masalalar tadqiq etilgan. Bitiruv-malakaviy ishda qiyosiy-tipologik, analitik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilish darajasi: Talaba Boboyeva Dildoraning "Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi" mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining bitiruv-malakaviy ishlariga qo'yilgan talablarga to'la javob bera oladigan, tugallangan ish bo'lib, uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Bitiruv-malakaviy ish rahbari: 

f.f.n. S. Kurbanova

 2015 yil «__» may

Urganch Davlat Universiteti

Filologiya va san'at fakulteti

5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi 403-guruh talabasi

Boboyeva Dildoraning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi”

Malakaviy ishning hajmi. 12900 soʻzdan iborat

Tushuntirish qismi varaqlar soni: 57 sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Ishning mavzusi dolzarb boʻlib, berilgan topshiriqqa mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismi va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va oʻrganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbalari, maqsad va vazifalari, ilmiy-amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi oʻz aksini topgan boʻlib, talablarga toʻla javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishda ilmiy-nazariy va badiiy adabiyotlardan, xalq ogʻzaki ijodi materiallari va innovatsion yutuqlar natijalaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Ishda mavzuga oid barcha maʼlumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan toʻla asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham koʻrsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishda xalq ogʻzaki ijodining ommaviy janrlaridan boʻlgan topishmoq va bu janrning oʻziga xos janriy belgilari masalasi, turkiy xalqlar ijodida uchraydigan umumiy va xususiy topishmoqlar, ularning oʻxshash va farqli tomonlari aniqlangan va ilmiy-nazariy xulosalar

chiqarilgan. Bitiruv-malakaviy ishda topishmoqlarda sinonimlik hodisasi, uning badiiyati, leksik-sintaktik qurilishi, ma'no turlari kabi masalalar tadqiq etilgan. Bitiruv-malakaviy ishda qiyosiy-tipologik, induksiya, deduksiya kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan. Har bir bob ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan xulosalarga ega.

Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Ishning materiallaridan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda ayrim texnik va uslubiy xatolar uchraydi. Bundan tashqari, turkiy xalqlarda uchraydigan topishmoqlar boshqa xalq topishmoqlari bilan qiyoslanib, farqli va o'xshash tomonlariga diqqat qaratilsa, ishning ilmiy qimmati yanada oshar edi. YUqorida sanalgan kamchiliklar ishning umumiy mazmuniga ta'sir etmaydi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:



Odilbek Yoqubov,

UrDU qoshidagi 2-son akademik litsey

ona tili va adabiyot o'qituvchisi

2015 yil « 6 » may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat Universiteti filologiya va san'at fakulteti filologiya (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Boboyeva Dildoraning "Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning « 15 » 2015 yil « fevral » dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	8
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	7
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	7
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	3
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	2
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	8
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:			72

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Boboyeva Dildora Dildoraxonovna
"Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi"
mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 72 balllik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va « qabul » deb baholansin.
2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 « 15 » fevral

Urganch Davlat Universiteti filologiya va san'at fakulteti

O'zbek adabiyoti kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____ 31 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Boboyeva Dildora Beknazarovna


Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: f.f.n. S.B. Kurbanova

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil « 15 » avgust da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib UrDU qoshidagi 2-son akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Odilbek Yoqubov tayinlandi.


Kafedra mudiri:



dots. D. G'ayipov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



f.f.n. M. Ishmuradov

Urganch Davlat Universiteti filologiya va san'at fakulteti
O'zbek adabiyoti kafedrası
Filologiya (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi – 5220100
ta'lim – bakalavr

Tasdiqlayman:

fakultet dekani v.b

 K.S. Niyozov

“ ” 2014__y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Boboyeva Dildora Beknazarovna

1. Ishning mavzusi: “Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi” «11-5»
15.01 2014__ yil universitet rektorining 800-732 sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “1” may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati:

a) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008; b) Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. 1-2-jild. – T.: Fan, 1978-79; v) Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. Epos. –T.: Fan, 1991; g) Topishmoqlar. -T.: Adabiyot va san'at, 1981; d) Xorazm folklori. – Urganch: Universitet, 2010; e) Edigenimedi yildiz, 1-2-tomlar. –Ashgabat: Turkmenistan, 1989; j) Qaraqalpoq folklori. III tom. – Nekis: Qaraqalpaqstan, 1978; z) Husainova Z. O'zbek topishmoqlari. – T.: Fan, 1966.

4. Ishning maqsadi: Ishda topishmoqlarni qiyosiy o'rganish asosida ulardagi umumturkiy va milliy xususiyatlarni aniqlash va sinonimik xarakterdagi topishmoqlarning yuzaga kelish sabablarini ochib berish asosiy maqsad qilib belgilangan.

5. Chizma materiallar ro'yxati: _____


6.Maslahatchilar: 1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
1. Bosh	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva
2. 1-bob	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva
3. 2-bob	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva
4. 3-bob	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva
5. Adabiyot	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva
6. Adabiyot	Saida Kurbanova	2023.09.01	Boboyeva


Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: UrDu

qoshidagi 2-son akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Odilbek Yoqubov


7. Ilmiy rahbar: f.f.n. Saida Kurbanova
(F.I.SH.)


(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: Dildora Boboyeva
(F.I.SH.)


(imzo)

Kafedra mudiri: dots. D. G'ayipov
(F.I.SH.)


(imzo)

REJA:

Kirish. .

I BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI UMUMIY (ADEKVAT) VA XUSUSIY TOPISHMOQLAR

1.1. Adekvat topishmoqlar.

1.2. Xususiyl topishmoqlar.

II BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI MA'NODOSH – SINONIMIK TOPISHMOQLAR

2.1. Ma'nodosh topishmoqlarning asosiy xususiyatlari.

2.2. Hayvonlar, qushlar va hasharotlar haqida yaratilgan topishmoqlar.

2.3. Mevalar, poliz va turli ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlar.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalq ijodiyoti asarlari eng qadimgi davrlardan beri insoniyatning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilib kelgan. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"¹ deb alohida ta'kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, xalqning urf-odatlari, hayotiy qadriyatlari uning qadimiy adabiy merosi bo'lgan og'zaki adabiyotida o'z aksini topadi.

Og'zaki adabiyotning eng qadimiy va ommaviy janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr har bir xalqning ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'zida to'la-to'kis qamrab oladi. O'zbek topishmoqlarini qardosh turkman, qoraqalpoq xalqlari topishmoqlari bilan qiyosiy-tipologik tarzda milliy-istiqlol mafkurasi asosida tadqiq qilish, ularning genetik asoslarini yoritish, har bir xalq topishmoqlariga xos umumiylik va alohidaliklarni ochib berish ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilishi. O'zbek folklorshunosligida topishmoq janri, uning yaratilishidagi asosiy omillar o'ziga xos xususiyatlari, turlari, epik asarlarda qo'llanilish tamoyillari, yangi yaratilgan variantlari haqida T.Mirzayev², Z.Husainova³, S.Ro'zimboyev⁴, M.Jo'rayeva⁵ va boshqalarning bir qancha tadqiqotlari e'lon qilingan.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: "O'zbekiston", 2008. – B. 29-30.

² Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O, O'zbek xalq orzaki poetik ijodi. –T.: "O'qituvchi", 1990, 100-108-betlar.

³ Husainova Z. Topishmoq terminlari // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1960, -№3, 28-33-betlar; Xalq topishmoqlaridagi bir badiiy vosita haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1984, -№4, 36-40-betlar; Topishmoqlarda epitet // O'zbek tili va adabiyoti. 1988, -№1, 54-56-betlar; Topishmoq terminlari // O'zbek xalq ijodi. –T.: Fan, 1967, 111- 123-betlar; Topishmoqli ertaklar // O'zbek folklori ocherklari, 2-tom. -T.: Fan, 1989, 102-129-betlar; So'ngso'z // Topishmoqlar. - T.: «Adabiyot va san'at», 1981. – B. 337-353.

⁴ Ro'zimboyev S. Majmuaga ilova etilgan badiiy asarlar haqida sharh // Xorazm folklori, XI tom. –Urganch: "Universitet", 2010, 138-141-betlar.

⁵ Jo'rayeva M. Bir topishmoqning tarixiy asosi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009, -№5, 58-62-betlar; "Shahar berish" odati va uning topishmoq aytish an'anasida tutgan o'rni // Xorazm folklori, XI tom, Urganch, "Universitet", 2010, 15-18-betlar; Suv kulti va uning topishmoqlar genezisida tutgan o'rniga doir ayrim mulohazalar // Xorazm folklori. VIII tom. Urganch, "Universitet", 2006, 68-72-betlar.

Turkman va qoraqalpoq folklorshunosligida B.A.Qarriyev, G.Gurbanov, A.Baymiradov, Q.M.Maqsatov, A.Alimov, A.Tajimuratov va boshqa olimlarning salmoqdor tadqiqotlari e'lon qilingan bo'lib, ularda har bir xalq orasida tarqalgan topishmoqlarning (turkmanlarda-matal, qoraqalpoqlarda-jumboq) janriy xususiyatlari, turlari, boshqa janrlar bilan aloqalari xususida muhim fikrlar ilgari surilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- Topishmoqlarni qiyosiy o'rganish asosida ulardagi umumturkiy va milliy xususiyatlarni aniqlash;

- sinonimik xarakterdagi topishmoqlarning yuzaga kelish sabablarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. O'zbek, turkman va qoraqalpoq topishmoqlarining turli yillarda nashr qilingan quyidagi majmualari ishda asosiy obyekt qilib olindi:

- A) Topishmoqlar: -T.: "Adabiyot va san'at", 1981. (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: Z. Husainova);

- B) Xorazm folklori. Urganch, "Universitet", 2010. (nashrga tayyorlovchilar: S. Ro'zimboyev, G.Eshchonova va boshqalar);

- V) Edigenimedi yildiz, 1-2-tomlar, Ashgabat, "Turkmenistan", 1989. (Nashrga tayyorlovchi: A.Baymiradov);

- G) Qaraqalpoq folklori III tom, Nökis, "Qaraqalpaqstan", 1978. (Nashrga tayyorlovchi: A.Alimov).

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 62 sahifadan iborat.

I BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI YAGONA ASOSGA EGA BO‘LGAN (ADEKVAT) TOPISHMOQLAR

1.1. Adekvat topishmoqlar

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining teran tomirlari juda qadimiy asoslarga ega. Bu xalqlar folklorini qiyosiy-tipologik tarzda o‘rganish xalq ijodiyotiga xos janrlarning shakllanishi va milliy asoslarini o‘rganishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Darvoqe, “... folklor asarlarini ilmiy tadqiq etishning keng tarqalgan va samarali metodlaridan biri “qiyosiy-tipologik metod” hisoblanadi. “Qiyoslash” deganda muayyan folklor janri, epik sujet yoki obrazni boshqa xalqlar og‘zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o‘rganish asosida o‘zaro o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi”¹.

V.M. Jirmunskiyning qayd qilishicha, xalq ijodiyotiga tegishli har qanday asar uni ijod qilgan xalqning muayyan sharoitlarda vujudga kelgan sotsial tuzumi, tarixi, ruhiyati, ijtimoiy ideali va badiiy tafakkurining milliy xususiyatlari hamda o‘ziga xos milliy qiyofasini namoyon qiladi.

Ilmiy tadqiqotning qiyoslash usuli bu milliy o‘ziga xoslikni, tarixiy jihatdan asoslangan holda chuqurroq aniqlab berish imkoniyatini ro‘yobga chiqaradi.

Topishmoqlar xalqning ommaviy, qadimiy va o‘lmas janridir. Hayot davom etar ekan, unda yuz bergan e‘tiborga loyiq hodisalar mazkur janrda o‘z ifodasini topishda davom etadi.

Turkiy xalqlarning qadimgi umumiy tili va umumiy madaniyatini bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. “Chunki VII-XIII asrlardagi qabila va urug‘ tillari faqat o‘zbek tili uchun emas, balki boshqa turkiy tillar (uyg‘ur, turkman, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq v.b.) uchun ham asos bo‘lgandir”². Demak, XIII asrgacha umumiy til va umumiy madaniyatga ega bo‘lgan o‘zbek turkman va qoraqalpoq xalqlarining og‘zaki badiiy ijodida ham mushtaraklik bo‘lishi tabiiydir. Shu bilan birga jamiyatning keyingi taraqqiyoti ularning og‘zaki ijodiyotiga o‘z ta’sirini

¹ Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009. – B. 154. (190)

² Abdurahmonov F. Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1973. –B.19.

o'tkazmasdan qolmadi. Bu holat og'zaki ijodiyot asarlari, xususan, topishmoq janrining ham millatlararo differentsiyalashish jarayonini boshdan kechirishga olib keldi.

Binobarin, umumturkiy til va madaniyat, shuningdek, keyingi taraqqiyot xalq ijodiyotidagi mushtarakliklarni batamom o'zgartirmagani holda ularda baribir alohidaliklarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Buni topishmoqlar misolida yaqqol anglab olish mumkin. Turkiy xalqlar folklorida yagona o'xshash hayot, umumiy turkiy til hukmron bo'lgan paytlarda yaratilgan topishmoqlar muayyan darajada ajralib turadi. Ularda yagona kompozitsiya, yagona metafora, yagona g'oya o'zini namoyon qilib turadi. Shu sababli biz ularni adekvat topishmoqlar deb nomladik.

Qardosh turkiy xalqlar folklorida tarqalgan adekvat topishmoqlarning aksariyati mazkur xalqlarning qadimgi umumturkiy madaniyatiga borib bog'lanadi.

Topishmoqlarning bu toifasi o'zlarining shakliy va mazmuniy ko'rinishi bilan alohida ajralib turadi. Ularning ayrimlaridagina ba'zi so'z va ifodalarning o'рни yoki shakli o'zgargan xolos.

Bunday topishmoqlar ancha qadimiy bo'lib, ular negizida mifik tasavvurlar ham o'zini yaqqol namoyon qiladi:

Qo'lsiz, oyoqsiz gul soladi. (Topishmoqlar, 20-bet).

Ayaksiz, elsiz-surat cheker. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 110-bet).

Qolsiz, ayaqsiz gul saladi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 157-bet).

Deraza oynasiga sovuq natijasida gulga o'xshash qirovning o'tirishini ifodalovchi bu topishmoqda uchala xalqning tasavvuri ham bir xil. Qiziqarli tomoni shundaki, bu topishmoq rus folklorida ham adekvat tarzda uchraydi: Bez ruk, bez noga, risovat umeet. (Lazutins. S.G. 97.)

Albatta topishmoq mazmuniga qaraganda u oyna kashf etilgandan keyin yaratilgan. Biroq, topishmoqda animistik dunyoqarashning izlari ham saqlanib qolgan.

Buni quyidagi namunalarda ham ko'rish mumkin:

Chopsa, chopilmas,

Kessa, kesilmas. (Topishmoqlar, 26-bet).

Gemsem-gemulmez,

Chapsam-chapilmaz. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 113-bet.)

Shapsa shabilmaydi,

Kesse kesilmeydi.

(Qaraqalpaq folklori, III tom, 42-bet).

Insoniyat tevarak-atrofiga boqib, ko'p narsalarga hayrat bilan qaragan. Yuqoridagi misollarda insonning soyasi jumboqlangan. Ibtidoiy davrda kishining o'ziga ergashib yurgan soyasi ham ajablanarli tuyulgan. Uni sirli hodisa sifatida tasavvur qilib, topishmoqlar yaratgan.

Turkiy xalqlarning qadimgi hayoti baliqchilik, chorvachilik, ovchilik bilan bog'langan. Shu sababdan adekvat topishmoqlarning aksariyati o'sha mavzu atrofiga jamlanadi:

Boshi boru sochi yo'q,

Ko'zi boru qoshi yo'q. (Topishmoqlar, 63-bet).

Kellesi bar, sachi yok,

Gözleri bar, gashi yok. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 56-bet).

Basi barda shashi joq,

Közi barda qasi joq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 173-bet).

Topishmoqlarda asosiy e'tibor bosh va soch, ko'z va qoshga qaratilgan. Baliqqa xos bo'lgan asosiy qiyofa uchala xalq tafakkurida ham bir xil aks etgan. Ma'lumki, baliqchilik bo'lgan joyda ko'l, uning ichida esa qamish o'sishi tabiiydir. Bu o'simlik ham insoniyatning qadimiy yo'ldoshidir. Undan kishilar uy qurishda, ayrim jihozlar yasashda, baliq ovlashda keng foydalanishgan. Bu holat qamish haqida turli topishmoqlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu topishmoqlarda ham shakliy va mazmuniy mushtaraklik yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

Uzun terak,

Ichi kavak, (Topishmoqlar, 95-bet).

Uzin derek,

Ichi kovek. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 74-bet).

Uzin terek, ishi geo'ek. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 94-bet).

Turkiy xalqlarda o'troq hayot boshlangandan keyin uy hayvonlari, parrandalar asrash, asta-sekin dehqonchilik madaniyati rivojlana borgan. Bu ijtimoiy turmush tarzi o'z navbatida topishmoqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Parrandalardan eng ommaviylik qozonib, topishmoqlar mazmunidan ko'p o'rin egallagani xo'rozdir. Ma'lumki, xo'roz tovuqlar orasida alohida ajralib turadi va viqor bilan yuradi. Shu sababli darhol e'tiborni tortadi.

Turkiy xalqlar orasida uning tashqi ko'rinishi asos qilib olingan quyidagi topishmoq juda mashhurlik qozongan:

Boshi taroq,

Dumi o'roq. (Topishmoqlar, 67-bet).

Bashi darak,

Guyrugi orak. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 47-bet).

Basi taraq, quyrug'i oraq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 75-bet).

Ushbu tasvirlarga aynan mos keladigan topishmoq Qrim tatarlari folklorida ham uchraydi:

Bashi tarak',

Q'uyrug'i o'rak'³.

Xo'rozlar haqida turkiy xalqlar folklorida juda ko'p topishmoqlar mavjud. Biroq, biz keltirgan namuna tom ma'noda adekvatlik kasb etadi. Boshqalari mazmunan o'xshasa-da shaklan farqlanadi. Biz keltirgan namunalar qadimiyroq vujudga kelgan bo'lsa kerak.

Tovuq, xo'roz, tovuq tuxumi haqidagi topishmoqlarning ko'pligi ularning inson hayoti bilan uzviy bog'liqligi va hamisha yonma-yon bo'lishidir. Ayniqsa tovuq tuxumi haqida yaratilgan jumboqlar yagona tasavvurga asoslanganligi bilan xarakterlidir:

Qoziqda qor turmas. (Topishmoqlar, 72-bet).

³ Bekirov Dj. Tatar folklori. – T.: "O'qituvchi", 1975. –B.94.

Uzin derek,

Ichi kovek. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 74-bet).

Uzin terek, ishi geo'ek. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 94-bet).

Turkiy xalqlarda o'troq hayot boshlangandan keyin uy hayvonlari, parrandalar asrash, asta-sekin dehqonchilik madaniyati rivojlana borgan. Bu ijtimoiy turmush tarzi o'z navbatida topishmoqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Parrandalardan eng ommaviylik qozonib, topishmoqlar mazmunidan ko'p o'rin egallagani xo'rozdir. Ma'lumki, xo'roz tovuqlar orasida alohida ajralib turadi va viqor bilan yuradi. Shu sababli darhol e'tiborni tortadi.

Turkiy xalqlar orasida uning tashqi ko'rinishi asos qilib olingan quyidagi topishmoq juda mashhurlik qozongan:

Boshi taroq,

Dumi o'roq. (Topishmoqlar, 67-bet).

Bashi darak,

Guyrugi erak. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 47-bet).

Basi taraq, quyrug'i oraq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 75-bet).

Ushbu tasvirlarga aynan mos keladigan topishmoq Qrim tatarlari folklorida ham uchraydi:

Bashi tarak',

Q'uyrug'i o'rak'³.

Xo'rozlar haqida turkiy xalqlar folklorida juda ko'p topishmoqlar mavjud. Biroq, biz keltirgan namuna tom ma'noda adekvatlik kasb etadi. Boshqalari mazmunan o'xshasa-da shaklan farqlanadi. Biz keltirgan namunalar qadimiyroq vujudga kelgan bo'lsa kerak.

Tovuq, xo'roz, tovuq tuxumi haqidagi topishmoqlarning ko'pligi ularning inson hayoti bilan uzviy bog'liqligi va hamisha yonma-yon bo'lishidir. Ayniqsa tovuq tuxumi haqida yaratilgan jumboqlar yagona tasavvurga asoslanganligi bilan xarakterlidir:

Qoziqda qor turmas. (Topishmoqlar, 72-bet).

³ Bekirov Dj. Tatar folklori. – T.: "O'qituvchi", 1975. –B.94.

Gazik ustunde gar durmaz. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 17-bet).

Qaziq basinda qar turmas. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 75-bet).

Shu narsa qiziqki, turkiy xalqlardan uzoq hududda joylashgan shimol xalqlari folklorida tuxum haqida yaratilgan topishmoqlar ham mazmunan yuqorida keltirilgan namunalarga mos keladi:

Na kryuk povesit ni kogda ne povisnet.

Yoqutistonda yashovchi evenklilar orasida tarqalgan bu topishmoqda ham qoziq tushunchasi bor. Albatta biz keltirgan namuna topishmoqning ruscha tarjimasidir. Originalda esa bu jumboq turkiy namunalarga yanada yaqin bo'lishi mumkin. Chunki yoqutlar ham turkiy xalqlarning uzoq ajdodi hisoblanadi. Shuni e'tiborga olganda, bu topishmoq umumturkiy xususiyat kasb etgan bo'lishi mumkin.

Turkiy xalqlar o'troqlasha borgandan so'ng dehqonchilik mashg'ulotlari ham hayotdan keng o'rin olgan. Natijada turli poliz ekinlari haqida topishmoqlar yuzaga kelgan. Sabzi, piyoz haqida, ularga xos metaforalar tanlashda ham turkiy xalqlar fikrlashida umumiylik ruhi ustuvorlik qiladi: Sabzi haqida:

Yer tagida oltin qoziq. (Topishmoqlar, 100-bet).

Yer astinda altin gazik. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 69-bet).

Jer astinda qatara qoziq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 90-bet).

Piyoz haqida:

Past-past bo'yi bor,

Yetti qavat to'ni bor. (Topishmoqlar, 101-bet).

Dolama dokuz doni bar,

Bir tobajak o'zi bar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 68-bet).

Kishkene g'ana boyi bar,

Qabat-qabat toni bar. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 90-bet).

Sabzi va piyoz haqidagi topishmoqlarni qiyoslaganda shu narsa anglashiladiki, sabzi haqidagi jumboqlarda "qoziq", rang piyoz to'g'risidagi topishmoqlarda bo'y va to'n tushunchalariga e'tibor qaratilgan. Chunki, sabzining yerga kirib turishi qoziqni, rangi esa oltinni esga soladi. Piyozning esa bo'yi

pastligi va toʻnining qavat-qavat ekanligi asosiy xususiyat boʻlib gavdalanadi. Birinchi topishmoqda rang va shakl, ikkinchisida boʻy va shakl jumboqlangan.

Qadimiy tasavvurlar faqat qardosh xalqlardagina emas, balki, qardosh boʻlmagan xalqlar ijodida ham oʻzaro yaqinlik kasb etadi. Chunki, "... tafakkurdagi umumiy qonuniyatlar tilda oʻz aksini topadi, chunki, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bogʻlangan. Natijada kelib chiqish jihatidan turlicha boʻlgan tillarda ham oʻzaro oʻxshash iboralar paydo boʻladi"⁴.

Sabzi haqida tojik folklorida yaratilgan topishmoqda ham tanlangan metafora turkiy xalqlarniki bilan bir xil:

Mexi zarrin-zeri zamin.

Yer tagida sariq mix. (Soʻfiyev A. Tadjikskie narodie zagadki. -S. 21.)

Turkiy xalqlarda oʻtroq hayot boshlangandan keyingi yaratilgan topishmoqlarning aynan bir xilligiga sabab, ulardagi turmush tarzining deyarlik bir tarzda kechganligidir. Tandir, oʻchoq, qozon, olov kabi uy-xoʻjalik asboblari haqida yaratilgan topishmoqlar bunga misol boʻla oladi. Bu asbob-uskunalar haqida tanlangan metaforalar oʻzaro juda mos keladi:

Ogʻzi qora alomat,

Ichi qizil qiyomat. (Topishmoqlar, 129-bet).

Agzi gara alomat,

Ichi gizil kiyamat. (Edigenim edi tsildiz, II kitob, 20-bet).

Aoʻzi toli əlamat,

Ishi qizil bəlamat. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 105-bet).

Tandirni oʻz tarkibiga yashirgan ushbu topishmoqda metafora olovga nisbatan ishlatilgan. Uchala topishmoqda ham olovning rang belgisi "qizil" tarzda qoʻllanilgan. Oʻzbek va turkman variantlarida qozonning tutundan qoraygan ogʻziga ham alohida metafora tanlangan.

Qozon va olov haqidagi topishmoqlarda tanlangan metaforalar ham eʼtiborni tortadi:

Qora sigir qarab turar,

⁴ Salomov F. Til va tarjima. – T.: "Fan", 1966. –B.255.

Sariq sigir yalab turar. (Topishmoqlar, 131-bet).

Gara sigri garap dur,

Sari sigrim yalap dur. (Edigenim udi tsildiz, II kitob, 26-bet).

Qara siyrim qarab tur,

Qizil siyirim jalap tur. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 95-bet).

Topishmoqlardagi “Qora sigir” –qozon, “qizil” va “sariq” sigirlar olovga nisbatan tanlangan metaforalardir. Turkman va o‘zbek variantlarida olovga nisbatan “sariq” qoraqalpoq variantida “qizil” metaforasi tanlangan. Albatta, bu qiyoslashlardagi har ikkala rang ham o‘zaro o‘xshashdir.

Topishmoqlarning uchala variantida ham asosiy urg‘uning, hal qiluvchi metaforaning sigir qiyofasiga borib bog‘lanishida ham mantiqiy asos mavjud.

Chunki, sigir uy-ro‘zg‘or, oila ramzidir. U oilani boqadi. Shu narsa xarakterliki, oltoyliklar sigirni uy deb atar ekanlar. Demak, turkiy xalqlarda bu hayvonning ardoqlanishi bejiz emas. Bu uy hayvoni har uchala xalq hayotida hamisha hal qiluvchi ro‘l o‘ynab kelgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, qozonning qoraligi, olovning sariqligini gavdalantirish uchun ataylab sigir obrazi tanlangan.

Qozon, olov bor joyda ovqatliklar ham bo‘ladi. Biz so‘z yuritayotgan xalqlarning umumiy, bir xil taomlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu ovqatlarning anchasi xamir bilan aloqador. Shu boisdan xamirning o‘zi haqida yaratilgan topishmoqlar ham ko‘p uchraydi:

Yumalatsam joni yo‘q,

Bo‘g‘izlasam qoni yo‘q. (Topishmoqlar, 104-bet).

Togalasam jani yok,

Pichaklasam gani yok. (Edigenim edi tsildiz, II kitob, 20-bet).

Jumalatsam jani joq,

Bao‘izlasam qani joq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 57-bet).

Ushbu namunalarga razm solinsa, ularda animizmning ta’siri sezilib turadi. Bu xususiyat ajdodlarimizning taom tayyorlash an‘analarining juda qadimiy ekanligidan darak beradi. Xamirning joni yo‘q, qoni yo‘q, deb ta’kidlanishiga qaramay, unga bo‘g‘izlash, pichoqlash nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish biz

eslatgan animistik dunyoqarashning akssadosidir. Turkiy xalqlarning sevimli taomlaridan biri chuchvaradir. Bu taom biz soʻz yuritayotgan turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida, shuningdek, Xorazmdagi oʻzbeklarda barak deb yuritiladi.

Bu taom haqida yaratilgan topishmoqlarda koʻproq qozon tushunchasiga urgʻu beriladi:

Bukdim,

Quduqqa tashladim. (Topishmoqlar, 106-bet).

Xorazm varianti:

Nurummat akam quyiga tushdi,

Quloqlari tarrayib chiqdi. (Xorazm folklori, XI tom, 39-bet).

Duvdum guya tashladim. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 18-bet).

Quda bala qudiqqa tusti,

Qulaqlari jalpayib shiqti. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 57-bet).

Chuchvara haqidagi topishmoqlarning oʻzbekcha variantlari oʻndan oshadi.

Ularning orasida qoraqalpoq variantiga aynan mos keladiganlari ham bor:

Quda buvam quduqqa tushdi,

Quloqlari shalpillab chiqdi. (Topishmoqlar, 106-bet).

Ushbu topishmoqlarda ham jonlantirish xususiyati oʻzini namoyon qiladi. Ularda “Nurummat aka” “Quda bola”, “Quda buva” kabi konkret insonlarning tilga olinishi badiiyatga xos kinoyaviy usulning bir koʻrinishidir. Bu usul topishmoqning ifodaviyligini oshirib, tinglovchining eʼtiborini tortadi.

Topishmoqlarning adekvat turi taomlardan tashqari uy-roʻzgʻor jihozlarini ham oʻz mavzu doirasiga qamrab oladi. Uchala xalq folklorida ham koʻrpa-toʻshak koʻp tilga olinadi.

Kunduz izzatda,

Kechasi xizmatda. (Topishmoqlar, 127-bet).

Gije xizmatda,

Gundiz-raxatda. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 27-bet).

Kundiz izzette,

Aqsham xizmette. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 200-bet).

Topishmoqlarda ko'rpaning "kunduzi izzatda"ligi uchala variantda ham ta'kidlanadi. Bu bejiz emas. Odatda izzat so'zi insonga nisbatan ishlatiladi. Topishmoqda uning ko'rpaga qarata aytilishida o'ziga xos ma'no bor. Turkiy xalqlarda ko'rpa-to'shak kunduz kuni taxlanib, uyning to'riga sandiqning ustiga, taxmonaga yig'ib qo'yiladi. Bu xalqlarda uyning to'ri aziz hisoblanadi. Biror mehmonga uyimizning to'ri sizniki, deb aytilishi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Biror e'zozli kishi kelsa, albatta uyning to'riga o'tkaziladi. Ko'rpaning izzatdaligi ana shu urf –odat bilan bog'liq bo'lib, o'z negizida xalqlarimizning oliyjanob urf-odatlarini yashirgan. Binobarin, topishmoqlar negizidagi ishoralarni anglash, har bir xalqning einografik xususiyatlarini ham yoritish imkoniyatini beradi.

Har bir mintaqaning o'ziga xos tabiiy sharoiti o'sha maskanda yashovchi xalqlarning turmush tarzida alohidaliklarni yuzaga keltiradi. Bu holat uy jihozlariga ham ta'sir etadi. Xorazm vohasida yashovchi xalqlar cho'l va ko'llar aralash joyda hayot kechirganliklari sababli bu yerlarda pashsha va chivinlar ko'p bo'ladi. Shu sababli ulardan himoyalaniş uchun pashsha xonalar ixtiro qilingan va bu jihoz topishmoqlardan ham o'rin egallagan.

Yotsa yobaday,

Tursa tuyaday. (Topishmoqlar, 128-bet).

Yatsa yandak yali,

Tursa due yali. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 38-bet).

Jatsa jabaday,

Tursa tuyeday. (Qaraqalpaq folklori, II tom, 57-bet).

Pashshaxona haqida topishmoqlar juda ko'p variantlarda tarqalgan. Uning uyga nisbat berilgan metaforali shakllari ham bor. Darhaqiqat, pashshaxona to'rt ilgakka tortilib, qurilgandan keyin uy shakliga ega bo'ladi, Shu sababdan yuqoridagi topishmoqlarda u tuyaga o'xshatiladi. Chunki, hayvonlar orasida eng katta gavdalisi tuya bo'lib, kishilar biror katta narsani ifodalamoqchi bo'lsalar tuyani misol tarzida tanlashadi.

Yuqorida keltirilgan namunalarda ham tuya metaforasi uning rangiga

nisbatan emas, balki kattaligiga ishora sifatida qo'llanilgan. Bu topishmoqlarda antiteza usuli qo'llanilgan. Chunki, pashshaxonaning yig'ilib turishidagi kichikligi, qurilganidan keyingi kattalashuvi ikkita qarama-qarshi metaforalarga murojaat qilishni taqozo etgan. Kichraytiruvchi litota usuli uchun o'zbek va qoraqalpoq variantlarida "yoba", "jaba" so'zi ishlatilgan. Bu so'z o'g'uz, qipchoq shevalarida turli shakllarda ishlatilib, panshaxa ma'nosini anglatadi. Albatta panshaxani tuyaga qiyoslaganda uning juda kichikligi ayon bo'ladi. Ayrim variantlarda "o'tsa yostiqlay" shakli ham uchraydi.

Turkman variantida litota uchun "yantoq" o'simligi olingan. Chunki yantoqning bo'yi ham bir metrga yetmaydi. Qolaversa, bu o'simlik tuyaning eng ko'p iste'mol qiladigan o'simligidir.

Turkiy xalqlar hayotida mehnat qurollari yasash va ulardan foydalanish ishlari ancha qadimdan boshlangan. Ayniqsa dehqonchilik bilan aloqador mehnat qurollari bu xalqlar orasida bir xil ko'rinishga ega. Shulardan biri omochdir.

Yer tagida oy yurar, (Topishmoqlar, 113-bet).

Yer astindan ay yorer. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 137-bet).

Jer astinda ay baratir⁵.

Ushbu topishmoq namunalariga e'tibor berilsa, oy metaforasi darhol ko'zga tashlanadi. Bu metafora omochning uchiga kiygizilgan temirga nisbatan qo'llanilgan. Temir yer ostida ishqalanib yurganligi sababli oppoq, yiltiroq ko'rinishga ega bo'ladi va rangi jihatidan oyga monand keladi. Topishmoqning yaratilishi temirni qayta ishlash amalga oshirilgandan keyingi davrga aloqadorligi sezilib turibdi. Bu detal unchalik qadimiylikka ega emasday tuyuladi. Biroq, temirdan asbob-uskuna yasashning boshlanganligi yaqin o'tmishni anglatmaydi. Shu boisdan ham ushbu topishmoqlarning paydo bo'lganidan beri ancha asrlar o'tgan va bu ishlab chiqarish qurolining iste'moldan chiqib ketganligiga ham ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bundan 40-50 yillar oldin ham dehqonlar omochda yer ishlashar edi. Darvoqe, bu asbob hozirda ham ayrim xalqlar dehqonchiligida ishlatilib kelayotgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

⁵ Alimov A. Ko'rsatilgan avtoreferat, 17-beti.

Dehqonchilik bilan bog‘liq yana bir uskuna borki, bu ishlab chiqarish quroli o‘tgan asrning o‘rtalarigacha yashab keldi. Ilgarigi davrlarda sug‘orma dehqonchilikda sathi baland dalalarga suv chiqarish uchun chiqirdan foydalanishgan. Bu asbob haqida uchala xalq folklorida ham ko‘plab topishmoqlar to‘qilgan. Topishmoqlardagi xarakterli xususiyatlardan biri jumboqlangan predmetning eng asosiy belgisiga e‘tiborni qaratishdir, chiqir haqidagi topishmoqlarda mazkur asbobni suv mavsumi bilan bog‘liqligiga ko‘proq diqqat qaratiladi:

Yozda yurar,

Qishda yotar. (Topishmoqlar, 114-bet).

Yaz aylanip,

Gishda yatar. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 142-bet).

Jaz aylanar,

Qista jatar. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 11-bet).

Chaqirning qishda ishlatilmay yotishiga asosiy urg‘u berilishining asosiy sababi suvning muzlab qolishidir. Topishmoq javobini topish uchun tabiatning fasllari bilan bog‘liq mavsumiy ishlarni va unda ishlatiladigan dehqonchilikka oid qurollarni bilish talab etiladi. Shu narsa diqqatga loyiqki, bir vaqtlar hammaga ma‘lum, dehqonchilik uchun muhim ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan chiqir unutilib ketdi. Biroq, ular haqidagi yaratilgan topishmoqlar kitoblarga muhrlanib qoldi. Hozirda bu toifadagi topishmoqlar javobini topish uchun alohida sharh talab etiladi. O‘z davrida yashash, oilani tebratish uchun muhim ishlab chiqarish quroli bo‘lgan tegirmon haqidagi topishmoqlar haqida ham o‘sha fikrni aytish mumkin. Tegirmon ikkita g‘ildiraksimon og‘ir toshlardan tashkil topib, uni aylantirish jarayonida bug‘doy yoki jo‘xorini yanchib un chiqaradi. O‘sha jarayonda qattiq guldiragan tovush hosil bo‘ladi. Bu uskuna haqida yaratilgan topishmoqlarda uning xuddi o‘sha xususiyati asos qilib olingan:

Qorong‘i tomda qoplon guldiraydi. (Topishmoqlar, 115-bet).

Garaŋki oyde gaplaŋ gurler. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 135-bet). Qaraŋg‘i uyde qaban gurkireydi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 104 bet).

Bu topishmoqlarning alohida ko'zga tashlanadigan tomoni shu erdagi, ularning uchovida ham uch metafora tanlangan: qorong'i uy, qoplon (qobon) va guldirash. Buning asosiy sababi tegirmon ma'lum bir xona ichiga qurilgan, uning faqat yuqorida tuynugi bo'lgan. Qorong'ilikka ishora qilish o'sha sharoitga bog'liq. Qoplon (qobon) yirtqich hayvon bo'lib, qo'rqinchli tovush bilan bo'kirgan va guldirashga o'xshagan ovoz chiqargan. Qoplon va guldirash kabi o'xshatishlarning ildizlari ana shu tushunchalarga aloqadordir.

Turkiy xalqlarda dehqonchilikning ajralmas bir qismi bo'lgan mevachilik mashg'ulotiga oid topishmoqlarning bo'lishi tabiiydir.

Uchala xalq folklorida ham uzumga oid topishmoqlar nufuzi ustuvorlik kasb etadi. Bu mevaning istagan joyda o'saverishi, hosilining mo'lligi, shu bilan birga unda o'xshatishlarga obyekt bo'ladigan shakl-shamoyilning turlicha ekanligi topishmoqlardagi jumboqlash tamoyillariga juda mos keladi. Har uchala xalq folklorida uzumga bag'ishlangan o'ndan ortiq topishmoqlar mavjud. Ulardan faqat adekvat shaklga ega bo'lgan topishmoqlar namunasini keltiramiz.

Qishda mozor,

Yozda bozor. (Topishmoqlar, 87-bet).

Gishda-mazar,

Yazda-bazar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 57-bet).

Qista mazar,

Jazda bazar. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 91-bet).

Uchala topishmoqda ham "bozor" va "mazor"ga nisbatan berilgan metafora tanlangan. Buning sababi shuki, uzum yozda maxsus joylarda tirmashib o'sadi va mo'l hosil beradi. O'sha hosil esa bozorga chiqariladi. Ikkinchi metafora uzumning qish paytida yerga ko'milishi bilan aloqadordir. Yerga ko'milish inson, ongida o'lim ramziga aylangan. O'lik esa mozorga joylanadi. Ana shu ramziylik uzumning qishdagi qiyofasiga ko'chgan.

Bu masalaning ikkinchi tomoni ham borki, uzum poyalari qishda ko'milganda usti bo'rtib ko'tariladi va uzunchoq shaklga kiradi. Bu ko'rinish ham shaklan mozorni eslatadi. Ana shu holatlar topishmoqlarda ixchamlashtirilgan

holda yashirin ko'chma ma'noga o'tgan. Jamiyat taraqqiy qilgan sari insoniyatning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi oshib boradi. Hayotga yangidan-yangi kashfiyotlar kirib keladi. Natijada yangi paydo bo'lgan har bir predmet yoki voqea-hodisalar bilan aloqador yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Bu tushunchalar bilan bog'liq yangi topishmoqlar ham yuzaga chiqa boshlaydi. Bular xat, yozuv, ruchka, kitob haqida yaratilgan topishmoqlardir.

“Ibtidoiy davrda yozuv bo'lmagan, biroq juda uzoq zamonlardayoq yozma yoki yozib qo'yishning birinchi shakli paydo bo'ladi. Bu obrazli yoki tasviriy xat piktografiyadir.

Bu yozuvdan fonetik yozuvga o'tguncha necha ming yillar oradan kechgan. Biz sharhlar qilmoqchi bo'lgan topishmoqlar insoniyat hayotining ancha takomillashgan davriga to'g'ri keladi. Chunki bu jumboqlar orasida kitob haqida to'qilganlari borki, ularning kitobat san'ati paydo bo'lgandan keyin ro'yobga chiqqanligi shubhasizdir.

Yozuv haqida yaratilgan topishmoqlar qog'oz ixtirosidan keyin paydo bo'lganligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Chunki topishmoqda “oq” metaforasi ishlatilgan:

Oq yer ochdim,

Qora bug'doy sochdim. (Topishmoqlar, 158-bet).

Ak yeri achdim,

Gara dari sachdim. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 143-bet).

Aq jerde qara tari... (Qaraqarpaq folklori, III tom, 59-bet).

“Oq” metaforasining ishlatilishi topishmoqda yashringan jumboqning asosi bo'lib hisoblanadi. Chunki, oq yuzaga qora bug'doy yoki tariq sochishning farqi unchalik bo'rtib ko'rinmaydi. Turkman va qoraqalpoq variantlaridagi tariq tushunchasi oq ustiga mayda qora donalarni sochish ma'nosini beradi.

Demak, oq yerga bug'doy yoki tariq sochishning oq qog'ozga qora harflarni tushirishga nisbat berilishi topishmoqning yashrin ma'nosi hisoblanadi. Bu topishmoqlarning boshqa variantlari ham mavjud. Ularda ma'no yagona bo'lsa-da, ifodaviy vositalar juda rangbarangdir. Ayniqsa jonlantirish usuliga e'tibor ko'proq

qaratilgan.

Yozuv, xat bilan aloqador topishmoqlarda ruchka, qalam kabi yozuv qurollariga doir tashbehlar ham qo'llanilgan. Masalan, quyidagi topishmoqlar salgina o'zgarishlar bilan uchala xalq folklorida ham uchraydi.

Ul nadirki, zarra-zarra kon bo'lur,

Tuxmi andak, mevasi chandon bo'lur.

Og'zi birdur, tili ikki, joni yo'q,

Ko'p kishi bu ma'niga hayron bo'lur. (Topishmoqlar, 158-bet).

Ol nadirkim, zerre-zerre kən bolar,

Toxumi sheyle, mivesi chendan bolar.

Agzi birdir, dili iki, jani yok,

Köp kishilar bu magna xayran bolar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 8-bet).

Ol nedurkim zərre- zərre kən bolur,

Tuqimi ondek, ondek, miyo'asi shondek bolur,

Agzi birdur, tili ikki, jani yoq,

Onin jurgen izleriniñ sani yoq,

Buo' jumbaqqa tushmägän hayran bolur.

(Qaraqalpaq folklori, III tom, 62-bet).

Bu topishmoq-she'ning o'zbekcha javobi qamish-qalam, turkmanchasi ruchka-xat, qoraqalpaqchasi ruchka-qalam tarzida berilgan. Umuman olganda bu jumboqda yozuv quroli haqida so'z borayotganligi ma'lum.

Topishmoq variantlarini qiyoslash va ularning tiliga e'tibor qaratish shunday fikrga olib keladiki, ularning kelib chiqishi bir manbaga borib bog'lanadi va bu manba yozma adabiyotga aloqadordir. Chunki, misralar aruzning ramali musaddasi mahzuf vazniga to'g'ri keladi:

Ul nadirki, zarra-zarra kon bo'lur

Foilotun, foilotun, foilun. Qoraqalpaq variantining besh misradan iborat bo'lishiga qaraganda topishmoqning boshqa variantlarda bir misrasining tushirib qoldirilganligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek qoraqalpoq variantida "joq" so'zi o'rniga "yoq"ning qo'llanilganligi, ikkinchi misrada "ondek", shondek"

soʻzlarining ishlatilishi va ularga “oz” va “koʻp” tarzida izoh berilishi ham topishmoqning manbasi yozma adabiyotga taalluqli, degan fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu topishmoq yozuvga koʻchirilgan qissa shaklidagi dostonlar tarkibidan olingan boʻlishi ehtimolga yaqin. Bu xarakterdagi topishmoqlar savodxon keksalar tilidan yozib olingan. Eski arab alfavitini yaxshi bilgan ayrim kishilar ayrim dostonlarga va shoirlarga tegishli chistonlarni yoddan bilishadi.

Oʻzbek topishmoqlari majmuasida bunday chistonlar uchrab turadi. Jumladan, kitobning 88-sahifasida Uvaysiyning “Anor” chistonining sal oʻzgargan varianti berilgan. Umuman olganda xat, qalam, qogʻoz haqida toʻqilgan topishmoqlarning roʻyobga chiqishida ziyoli ijodkorlarning roli sezilib turadi.

Kitob paydo boʻlib, uning ommalashishida ziyolilarning katta xizmatlari borligini eʼtirof etish zarur. Biror narsa paydo boʻlib, ommalashmaguncha oʻsha narsa haqida topishmoq toʻqilishini tasavvur etib boʻlmaydi. Kitob haqida yaratilgan topishmoqlar xususida ham oʻsha fikrni aytish mumkin.

Kitob haqida har uchala xalq folklorida koʻplab topishmoqlar yaratilgan boʻlib ularning ayrimlarigina adekvat xarakterga ega.

Oʻzbek variantlari:

Qat-qatgina qatlama,

Aqling boʻlsa tashlama.

Qat-qatgina qatlama,

Qatlamadan hatlama. (Topishmoqlar, 157-bet).

Turkman variantlari:

Gatlak-gatlak gatlama,

Gatlamadan otlama.

Gatlak-gatlak gatlama,

Xer gati bir yatlama. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 4-bet).

Qoraqalpaq varianti:

Qabat-qabat qatlama,

Esih bolsa taslama, (Qaraqalpaq folklori, III tom, 60-bet).

Kitob haqidagi topishmoqlarda asosiy jumboq qogʻozlarga aloqadordir.

Biroq, ularda qog‘ozning rangiga emas, balki, uning qat-qat taxlanib turishiga asosiy e‘tibor qaratilgan. Yana bir asosiy ishora shu erdagi, har uchala variantlarda ham ikkinchi misra kitobning qadr-qimmatiga qaratilgan. Bu esa xalqlarimizning ma‘naviy-ma‘rifiy barkamollikka hamisha e‘tibor bilan qarab kelayotganliklaridir.

Binobarin, turkiy xalqlar topishmoqlarining adekvat shakli eng qadimdan oq shakllangan va doimo ijtimoiy turmush taraqqiyoti bilan birga qadam tashlagan. Har bir davrga xos yangiliklar topishmoqlarda o‘z aksini topgan.

1.2. Xususiy topishmoqlar

Har bir millatning o‘ziga yarasha qadimiy an‘analari, tafakkur darajasi, muhit, turmush tarzi, hayotiy mashg‘ulotlari bilan bog‘liq dunyoqarashi mavjud bo‘ladi. Millatlar aro aloqa, aralashuvlarning ta‘siridan qat‘iy nazar, har bir xalqda milliy alohidalik hamisha o‘zini namoyon qilib turadi. Bu alohidalik uning ma‘naviy boyliklarida ham o‘z aksini topadi.

Ma‘lumki, xalqning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari, o‘ziga xos dunyoqarashi uning og‘zaki ijodiyotida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Topishmoq janri xalq tafakkurining mevasi sifatida ro‘yobga chiqar ekan, unda albatta o‘z yaratuvchisining milliy qarashlari aks etadi.

Topishmoqlarning muayyan bir milatga tegishli ekanligini aniqlash ancha murakkab masala. Lekin shunday topishmoqlar borki, ularda ma‘lum bir millatga aloqador predmet atrofida so‘z yuritiladi. O‘sha predmet boshqa millat uchun butunlay notanish bo‘lib, uning nima ekanini anglab etmasligi ham mumkin. Agar anglab etganda ham bu narsa falon millatga tegishlidir, deya e‘tirof etadi. Bunday narsa-predmetlar uy-ro‘zg‘or asboblarida, taom turlarida, kiyimlarda, jihozlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Masalan, Xorazmda “go‘mma” degan taom bor bo‘lib, buni faqat mahalliy aholi biladi. Agarda keksalardan bu taomning nomi nega “go‘mma” deb ataladi, deya so‘rasangiz, ular shunday javob berishadi: dastlab go‘sh t qiymalanadi va xamirga ko‘miladi, keyin ikkovi yoqqa ko‘miladi, o‘sha “ko‘mmoq” so‘zidan “go‘mma” atamasi, kelib chiqqan. O‘sha taom haqida

topishmoq ham to‘qilgan:

Qo‘sha qatli, o‘rtasi totli, (Xorazm xazinasini, 83-bet).

Bu topishmoqda doira shaklida yassilangan xamirning go‘shni qiymasi solinib, ikki buklanishi “qo‘sha qat” birikmasida, qiyma esa “o‘rtasi totli” birikmasida jumboqlangan. Demak, bu taom haqida tasavvuri bo‘lmagan boshqa xalq vakili topishmoq jismiga yashringan jumboqni echa olmaydi.

O‘zbek palovini ko‘p xalqlar biladi. Lekin u haqdagi topishmoqning mag‘zidagi ma‘noni anglab etish uchun ushbu ovqatning qanday tayyorlanishini bilish zarur. Palov haqida shunday topishmoq to‘qilgan:

Ettisi bir erga yig‘ilsa,

Beshisi bir erga yig‘iladi. (Topishmoqlar, 105-bet).

Bu satrlardagi “etti” va “besh” raqamlari yashirin metaforalardir. Ularning mag‘zini chaqish uchun palovning nimalardan tayyorlanishini bilish kerak. Bular: yog‘, go‘shni, piyoz, guruch, sabzi, suv va tuzdir.

Odatda milliy an‘anaga ko‘ra palov qo‘l bilan eyiladi, shunda besh barmoq bir erga yig‘iladi. Bu ikkita yashirin jumboqni echish uchun taomning milliy xususiyatini tushunib etish lozim. Boshqa millat vakili uchun bu masalaning tagiga etishi juda murakkabdir.

Har bir xalqning turmush tarziga moslangan ishlab chiqarish qurollari bo‘ladi. O‘zbekiston hududida paxta etishtirish ancha qadimdan beri davom etib keladi. Ushbu o‘simlikni qayta ishlash uchun maxsus asbob-uskunalar ham yuzaga kelgan. Shulardan biri halloji deb nomlanadi, bu mehnat quroli ham xalq e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan bo‘lsa kerakki, uning timsolini gavdalanitiruvchi topishmoqlar yaratilgan:

Bir yog‘iga qor yog‘adi,

Bir yog‘iga do‘l yog‘adi.

Oqqina eydi

Ko‘kkina chiqadi. (Topishmoqlar, 110-bet).

Bu asbob paxtadan chigitni ajratuvchi chig‘irliq bo‘lib, uning bir yog‘idan paxta momig‘i, ikkinchi yog‘idan chigit ajralib chiqadi. “qor”-paxta, “do‘l” chigit

timsolini anglatadi. Ikkinchi topishmoqdagi “oq” va “ko‘k” metaforalari ham o‘sha tushunchalar bilan bog‘liqdir. Ushbu mehnat quroli haqida tasavvuri bo‘lmagan kishi topishmoqning jumbog‘ini echa olmaydi.

Xorazm O‘zbekistonning chekka o‘lkalaridan biri bo‘lib, bu mintaqaning o‘ziga xos iqlimi, mehnat mashg‘ulotlari bor. Masalan, bu erda qish juda qattiq keladi. Shu sababli qishda po‘stin va cho‘girma kiyilgan. O‘z navbatida qattiq keladigan qish, po‘stin va cho‘girma haqida topishmoq yuzaga kelgan:

To‘qson bo‘riga oldirmas,

Etti qo‘yu, bir qo‘zi. (Xorazm xazinasi, 67-bet).

Topishmoqda “to‘qson bo‘ri”, “etti qo‘y”, “bir qo‘zi” metaforalari qish, po‘stin va cho‘girmaga tanlangan jumboqli metaforalardir. “To‘qson” raqamida to‘qson kundan iborat qish sovug‘i nazarda tutilgan. “Etti qo‘y” po‘stinning ettita qo‘yning terisidan, “bir qo‘zi” esa cho‘girmaning bitta qo‘zi terisidan tikilishiga ishoradir. Qishning sovuqligi “bo‘ri” timsoliga ko‘chirilgan. Mazkur topishmoq Xorazm mintaqasiga xos iqlimga berilgan jumboqli ta’rifdir.

Xorazmda yuqoridagi topishmoqqa monand keladigan yana bir variant mavjud, bu ham xalqning o‘ziga xos turmush tarzini ifodalaydi:

Ho‘kizni mindim,

Qo‘yni ko‘tardim,

G‘ovachaga gizlandim. (Topishmoqlar, 150-bet).

Bu topishmoqda etik, cho‘girma va kuylak haqida jumboq berilgan. Ho‘kiz terisidan etik, qo‘y terisidan cho‘girma tikiladi. Etik pastda bo‘lgani uchun miniladi, cho‘girma boshga kiyilgani uchun ko‘tarib yuriladi. “G‘ovachaga gizlandim” iborasida “paxtadan to‘qilgan kuylakka yashirindim” degan ma’no jamlangan. Topishmoqda keltirilgan ushbu yashirin ifodalar mintaqaviy xarakter kasb etadi. Albatta bu kiyimlar boshqa hududlarda ham bor. Ammo topishmoqning til xususiyati uning Xorazmda ro‘yobga chiqqanligini yaqqol namoyon qiladi.

Harqanday millat ma’naviyatida san’at alohida o‘rin tutadi. Uning milliy cholg‘u asbobi, qo‘shiqlari bo‘ladi. To‘ylar-marosim va sayllarda chalinadigan musiqa asboblari boshqa xalqlarnikidan farq qiladi. O‘zbeklarda to‘y-tantana

bo'lsa karnay va nog'ora chalinadi. Shu boisdan ushbu asboblarga aloqador topishmoqlar yaratilgan:

Bo'z-bo'z etar qo'limda uzun terak,
Yiqilib, shoxi mening qo'limda.
Tomda turib gilam qoqdim,
Changi jahonga ketdi. (Topishmoqlar, 160-161-betlar).

Birinchi topishmoqdagi "uzun terak" karnay timsoli, "bo'z-bo'z" qilish uning tovushidir. "Shoxi" karnayning puflaydigan uchi bo'lib, u karnaychining qo'lida bo'ladi. Bu tasvirning barchasi puflab chalinadigan musiqa asbobi karnay haqida tasavvur hosil qiladi.

Ikkinchi topishmoqda "gilam" va "chang" so'zlari yashirin o'xshatishlar bo'lib, birinchisi nog'orani, ikkinchisi uning ovozi anglatadi. To'y tantanalarida karnay va nog'orani tomga yoki baland joyga chiqib chalinishiga oid tushunchalar ham topishmoqdan o'rin egallagan.

Xorazm o'ziga xos bir mintaqaga bo'lib, unda qadimdan boshlab baliqchilik mashg'uloti ustuvorlik qilgan. Ushbu hayotiy mashg'ulotlarga oid ayrim tushunchalar hozirgacha saqlanib kelgan. Bu o'lkada qish sovuq kelganligi sababli ushbu faslda ko'l va daryolar qalin muz bilan qoplanadi. Baliqchilar baliq ovlash uchun muzni yarim metrga yaqin aylana shaklida o'yishadi. Muz ostida dimiqqan baliqlar o'sha o'ydiquqa yig'ilishadi. Natijada ularni ovlash osonlashadi.

Baliq ovlash uchun o'yilgan joy mahalliy shevada "hugi" deb yuritiladi. Xuddi o'sha o'ydiquqa bag'ishlangan topishmoqlar ham bor:

Yurtsiz erda it uvillar. (Xorazm xazinasasi, 80-bet).

Bu topishmoqda ikkita yashirin o'xshatish ko'zga tashlanadi: "yurtsiz er", "it uvillar". Birinchi o'xshatishda hech kim istiqomat qilmaydigan ko'l jumboqlangan. Ikkinchi o'xshatish ancha murakkabroq. Muz o'yilib, baliq ovlangach, kechqurun barcha bu maskanni tark etishadi. O'sha vaqtda shamol o'ydiquqa tegib aylanib, uvillagan ovoz chiqaradi. Bu ovoz ba'zan qishloqqacha etib keladi. Ana shu holat topishmoqda jumboq uchun tanlangan.

Mazkur topishmoqni baliqchilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanmagan yoki

undan bexabar bo'lgan kishining echishi amri maholdir. Shu sababdan ham bunday topishmoqlar mintaqaviy xarakterga ega bo'lib, milliy o'ziga xoslik kasb etadi.

Turkman folklorida tarqalgan topishmoqlarda ham milliy o'ziga xoslik, turmush tarzi, kiyinish madaniyati, turli taomlar, urf-odatlar bilan aloqador namunalar orqali namoyon bo'ladi.

Turkman topishmoqlarining turli oziq-ovqatlar bilan daxldor namunalarida o'ziga xos milliylik alohida ko'zga tashlanadi. Turkman xalqi so'k qaynatish, uni iste'mol qilishni xush ko'rishadi. Bu mavzuda topishmoqlar ham to'qilgan:

Gazana salip gaynatdim,

Sachaga salip guratdim,

Urup-urup sariq etdim,

Ier yali tap-taň etdim. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 16-bet).

Ushbu topishmoqda so'kni tayyorlash texnologiyasi bayon etilgan. Bu jarayonni faqat so'kni iste'mol qiluvchilargina idrok qila olishlari mumkin.

Topishmoqda aytilishicha, so'k qozonga solib qaynatilgan, keyin sochiqqa solib quritilgan, urib-urib qobiqdan ajratilgan va eyishga tayyor etilgan. Asosiy jumboq qaynatish, quritish va tuyush masalasiga bog'langan.

Turkman xalqi orasida chalpak pishirish alohida o'rin tutadi. Chalpak tayyorlash xususida bir qancha topishmoqlar yaratilgan:

Garaja gol ichinde,

Sari yaglik yalpildar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 17-bet).

Topishmoqda ikkita yashirin metafora ishlatilgan. "Qora ko'l" –qozon, "sariq yog'lik"-chalpak timsolida berilgan. Turkman xalqi orasida jo'xoridan tayyorlanadigan mahsulotlar anchani tashkil etadi. Shulardan biri patrakdir. Patrak nonning bir turi bo'lib, jo'xori unidan tayyorlanadi. Ushbu jo'xori non haqida boshqa xalqlarda topishmoqlar uchramaydi. Turkman folklorida esa uning bir qancha variantlari mavjud:

Takirjak erde gaz oynar,

Kep oynamaz, az oynar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 19-bet).

Topishmoqda ikkita jumboq yashirilgan: “takirjak er” -tandir, “g‘oz”-patrak. Tandir taqir –tekis er tarzida metaforalashgan. Patrakning “g‘oz”ga o‘xshatilishining sababi uning rangi qizarib pishmasdan oqligicha qoladi. Faqat ayrim qizg‘ish dog‘lar bo‘ladi.

Patrakning ko‘p o‘ynamas, oz o‘ynar deyilishiga sabab shuki, u yopilgach, tez o‘tmay eyiladi. Demak patrak ham milliy eyimlikka kiradi va bu ne‘mat haqidagi topishmoq ham mintaqaviy lokal xususiyatga ega.

Turkman xalqi ko‘proq cho‘l va sahro oralab yashashadi. Shu sababli ularning folklorida cho‘l va sahrolarda o‘sadigan o‘simliklarga aloqador topishmoqlar anchani tashkil etadi. Cho‘lda o‘sadigan eng chidamli o‘simlik yantoqdir. Bu o‘simlik tuya boqishda, o‘tin o‘rnida ko‘p asqotadi:

Arkaña mundum-xan boldum,

Gapiña geldim gul boldum,

Oduña yandim-kul boldum. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 64-bet).

Shunday o‘simliklardan yana biri tikanakli changaldir:

Chir –chir gushlar,

Chirman gushlar,

Agzi yokdur,

Adam dishlär (Edigenim edi yildiz, II kitob, 76-bet).

Yantoq haqidagi topishmoq allegoriya usuli asosida yaratilgan bo‘lib, unda yantoqning o‘zi gapirtiriladi. Uni odam chopib arqonga bog‘laydi va orqasiga ko‘taradi. Bu lavha “xon bo‘ldim” iborasida o‘z aksini topadi. Ko‘tarib kelingan yantoq uyning oldiga taxlab qo‘yiladi. Uning qip-qizil gullari eshik oldida guldek chiroy berib turadi. Bu lavha “Gul bo‘ldim” birikmasida ifodasiga ega bo‘ladi. Nihoyat yantoq tandirga yoqiladi va kulga aylanadi. Bu lavha topishmoqning oxirgi misrasida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi topishmoqda ham original o‘xshatishlar yashringan.

Birinchi ikki misrada qushlarning tilga olinishi tikan bilan qush tumshug‘ining o‘xshashligi bilan aloqador yashirin metaforadir. Keyingi misralarda tikanning sanchiluvchanlik xususiyatiga e‘tibor qaratilib jumboq

yakunlanadi. Bu toifa o'simliklar bilan bog'liq topishmoqlar boshqa turkiy xalqlar ijodida ham bor. Lekin, turkman folklorida ular ancha faol ishlatiladi. Har bir millat hayotida ko'proq iste'mol qilinadigan, ko'proq ekiladigan ekinlar bo'ladi. Turkman xalqi ko'proq kunjut, tariq, kandir kabi ekinlarni ekishadi. Ayniqsa, kunjut turkmanlar hayotida katta o'rin egalaydi. Bu o'simlik hozirda ham juvozda yog' qilib iste'molda ishlatiladi. Har qanday holatda xalq hayotida ommaviylashgan narsa uning folklorida akssado beradi. Shuning uchun ham bu o'simliklar haqida topishmoqlar to'qilgan:

Chil-chiləniň boyunda,

Chilim boyli giz otir.

Ganatini kakanda,

Ləle-jəvxoer dəkuler. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 76-bet).

Ayagin ere dikar,

Kellesinden yag chikar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 64-bet).

Birinchi topishmoqda kunjut haqida uchta yashirin o'xshatish berilgan. Kunjut ekilganda kichik marza tortiladi, o'sha marzadagi suv bo'yida o'tirgan "chilimning bo'yidek keladigan qiz" kunjutdir. Shamol ta'siri bilan uning shoxalari tebranadi, o'sha paytda to'kiladigan "la'li javhar" kujutning donalaridir.

Keyingi topishmoqda kandir haqida, so'z boradi. Kandir Turkmanistonda va Xorazmda bir vaqtlari ko'p ekilgan. Keksalarning aytishicha bu o'simlik jo'xori dalalarining atrofiga ekilib, hashorotlarni qirar ekan. Po'stlog'idan ip eshilar, mevasi juvozg solinib yog' olinar, yoki shu holicha iste'mol qilinar ekan. U xuddi jo'xoripoyaga o'xshab tik o'sgani uchun xuddi erga qoqilgan tayoqday tik turganligi uchun bo'lsa kerak, topishmoqning birinchi misrasida o'sha holatga ishora bor. Bu o'simlikning boshog'idan yog' olinishi ikkinchi misrada o'z ifodasini topgan.

Har bir xalqning o'ziga yarasha musiqa madaniyati, cholg'u asboblari bo'lgani kabi turkman xalqida ham boshqa xalqlarnikidan farqlanuvchi soz asboblari uchraydi. Shulardan biri tuydikdir. Bu puflab chalinadigan asbob fleytaga monandlik kasb etadi. O'sha asbob haqida bir qancha topishmoqlar yaratilgan:

Guri yap ichinda gulan gigiryar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 41-bet).

Edi menzil yolda eññemiñ ati kishñeyär. (O'sha kitob, 42-bet).
Bu keltirilgan har ikkala namunada tuyduk jumboqlangan. Birinchi topishmoqda “Quruq (suvsiz) yo (anhor)” va “qulon” metaforalari berilgan. Suvsiz anhor tuydukning kovakligiga nisbatan, qulonning qiyqirishi esa uning ovozigga qarata qo'llanilgan. Bu asbob aslida o'zbeklardagi nayga ham o'xshash keladi, faqat uchi tomonidan puflab chalinadi, ovozi esa juda kuchli chiqadi. Ikkinchi topishmoqdagi “etti manzil” yo'ldan ovozi kelgan “engamning otining kishnashi” ana shu tushunchani jonlantirishga mo'ljallangan.

Turkman xalqining tarixi qadimdan chorvachilik, xususan qo'ychilik bilan aloqadordir. Bu sohada ishlatiladigan ko'pgina mehnat qurollari topishmoqlarda o'z aksini topgan:

Eyläk gecher gara atim,

Beyläk gecher gara atim,

Summa tokay ichinden,

Giyip gecher gara atim.

(Edigenim edi yildiz, I kitob, 142-bet).

Mazkur topishmoqda qo'y junini qirqadigan qaychi-qirqiliq haqida gap ketayotir. Shu sababli bu jumboqdan “qora ot” va “to'qay” metaforalari o'rin olgan. “Qora ot” temirdan ishlanib, rangi qora bo'lgan qirqiliq; “to'qay” esa qo'yning junidir. Agarda topishmoqni to'la tahlil qiladigan bo'lsak, “qora ot” u yoqqa chopadi, bu yoqqa chopadi. Summa (qalin) to'qay-jun ichidan ularni qiyib chiqib keladi.

Topishmoqdagi obrazlilik, uning jarangdorligi darhol kishi e'tiborini tortadi. Biroq, chirvachilikka aloqador ayrim masalalarni bilmagan kishi bu topishmoqdagi “qora ot” va “to'qay”ning haqiqiy ma'nosini anglab ola olmaydi. Bu namunalarning barchasida uni yaratgan xalqning milliy ruhi o'z ifodasini topgan bo'lib, hududiylik xususiyatiga ega. Barcha xalqlar kabi qoraqalpoq xalqining ham hududiy birligi, milliy an'analari, urf-odatlar, kasb mashg'ulotlari mavjud. Ushbu qator masalalar uning folklor asarlarida o'z aksiga ega bo'lgan.

Qoraqalpoq xalqi hayotida chorvachilik, baliqchilik qadimdan asosiy kasb mashg'ulotlari sifatida yashab kelgan. Mazkur turmush tarzi topishmoqlarda ham akssado beradi:

Köz jet peste bir pil,

Ariasinda taspä til,

Janlidan jansiz turaadi,

Aqiliñ bolsa oylap bil. (Qaraqalpaq folklori, II tom, 74-bet).

Topishmoqning uch misrasida uchta o'xshatish mavjud. Birinchi misrada ko'z ilg'amas joydagi fil haqida so'z ketayotgani anglashiladi. Bu "Fil" bakra balig'idir. "Ko'z ilg'amas joy" suvning tagi, bakra balig'ining "fil" deb metaforalashishining sababi ushbu baliqning og'zi jag'ining ostida bo'ladi. Filning ham og'zi ostida bo'lganligi sababli tumshug'i yo'q. Ikkinchi misrada bakra balig'ining yana bir xususiyati "tasma til" metaforasiga tegishlidir. Ushbu baliqning quyrug'i tasmaga o'xshab uzun va ingichka bo'lib, baliqning yoshiga qarab 5-10 santimetrdan bir qarichgacha boradi. Uchinchi misrada baliqning urug' sochishiga ishora bor. Demak, bu topishmoqni topish uchun bakra balig'i haqida tasavvur bo'lishi kerak.

Qoraqalpoq topishmoqlari orasida faqat baliqlarning o'zigina emas, balki ularning turli a'zolariga bag'ishlanganlari ham bor. Masalan, baliqning o't xaltasi haqida quyidagi topishmoqda jumboq yashiringan:

Ashilmag'an urada,

Pishilmegen ton jatir. (O'sha manba, o'sha sahifa)

Ochilmagan o'ra va "bichilmagan to'n" metaforalari mag'zida baliqnin qorni hamda unda joylashgan o't pufagi jumboqlangan. Bunday topishmoqlarning mag'zini tushunish uchun baliqchilik va baliq haqida muayyan tasavvurlar bo'lishi kerak. Aks holda ular xalq orasida ommaviylashmaydi. Qoraqalpoq xalqining o'z milliy eyimliklari-ichimliklari borki, ular ham topishmoqlar jismidan joy olgan. Yaqin o'tmishda qoraqalpoqlar va xorazmliklar non taqchilligi sababli ko'mach iste'mol qilishar edi. Bu davr o'tgan asrdagi urush va undan keyingi paytlarga to'g'ri keladi. Albatta ko'mach boshqa xalqlarga ham tanish narsa, biroq ushbu

emish haqida qoraqalpoq xalqi orasida original topishmoq yaratilgan:

Qotir tuye kulge ao'naydi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 57-bet).

Topishmoqdagi "qo'tir tuya" ko'machga nisbatan ishlatilgan metaforadir. Ko'mach odatda o'tda tovasiz pishirilgan. Natijada ayrim joylari kuyib qoraygan. Ushbu holat "qo'tir tuya" tasvirini yuzaga keltirgan. "Kulga ag'nash" iborasi yuqorida ta'kidlaganimizdek ko'machning tindirilgan cho'qda pishirilishidir.

Qoraqalpoqlar hayotida tuya suti ko'p iste'mol qilinadi va undan turli ichimliklar tayyorlanadi. Shulardan biri shubat bo'lib, bu ichimlik haqida quyidagi topishmoq yuzaga kelgan:

Sildir suyuq suo' emes,

Ishseñ shəliñ qandirar,

Aq bolsada, qar emes. (Qaraqalpaq folklori, II tom, 58-bet).

Bu toifa topishmoqlar faqat chorvador xalqlar folklorida faollik kasb etadi.

Qoraqalpoqlarning chorvador ekanligi, hayvonot olamining sirlaridan boxabar ekanligi quyidagi topishmoqda ham o'zini namoyon qilib turadi:

On eki tuye,

Өn biye,

Tog'iz siyr,

Bes eshki,

Eki yarim qoyan,

Ush tulki.

Topishmoq tarkibidagi o'n ikki, o'n, to'qqiz, besh ikki yarim, uch raqamlari o'sha misralarda ko'rsatilgan hayvonlarning bolalash muddatlarini bildiradi.

Qoraqalpoqlarda chorvachilik ovchilik kasbi bilan birga qo'shib olib borilgan. Shu boisdan ham topishmoqda faqat uy hayvonlarigina emas, balki yovvoyi hayvonlar ham tilga olinadi.

Folklor asarlarida xalqning maishiy hayoti, turmush tarzi hamisha o'z aksini topib boradi. Ayrim topishmoqlarda ushbu holat o'zining yaqqol ifodasini topgan:

Өgiz baylar edik,

Kəldiñ boyin jaylar edik,

Qirildiq, qispaqqa tustik,

Otiz eki duzaqqa tustik. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 1158-bet)

Topishmoq jonlantirish usuliga asoslangan bo'lib, unda jonsiz predmetlar "tilga kiradi".

Ichi g'ovak bo'lmagan qamishning bir turi to'qayzorlarda ko'plab o'sadi. Ulardan odatda qurilish materiali sifatida foydalaniladi, savag'ich qilib paxta titishadi, uy oldiga devor sifatida o'rnatishadi. Qoraqalpoqlarda, shu jumladan, Xorazmda ham undan chiy to'qishadi.

Topishmoqda chiy to'qilib foydalanilgan qamishlar o'z taqdirini bayon qilishgan. Odatda bunday qamishlar ko'l bo'ylarida o'sadi. Topishmoqdagi bayonga qaraganda ular qirqib olingan va ipga tizilgan. Qamishlarning bir-biriga jipslashtirilgan holda ip bilan o'zaro mahkamlab bog'lash "tuzoq" tushunchasi orqali ifodalangan. Xalq hayotidagi, ularning turmush tarzidagi ko'pgina holatlar topishmoqlarga mavzu bo'lgan. Qoraqalpoq folklorida ko'l va cho'l o'simliklari bu borada ko'proq ko'zga tashlanadi. Quyidagi keltiriladigan namunalar ham mahalliy xarakterga ega:

Uy artinda nar terek,

Gurespege adam kerek. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 94-bet).

Kosherimdi jel bilsin,

Qonarimdi say bilsin. (O'sha manba, 95-bet).

Kuzga kelib, ko'ldagi qamishlar o'riladi va kichik-kichik dastalar bir-biriga suyalgan holda kudi (to'p) qilinadi. Bu kudi xuddi kichik qora uy shakliga kiradi. Ularning beli bog'lanadi. O'sha ko'rinish belbog'li kurashchi qiyofasini eslatadi. Shu sababli "nar terak" bilan "kurashmoqqa odam kerak" degan ibora ishlatilgan.

Ikkinchi namunada cho'l o'simligi jumboqlangan. Xorazm vahasida qumlarda xuddi sharga o'xshagan, tipratikonday bo'yi bir metrcha keladigan tikanli o'simlik bor. Ular qattiq shamolda qo'porilib, dumalab ketadi va toki biror anhor yoki tepalikka borib urilguncha yumalashda davom etadi. Bu o'simlikning nomi qoraqalpoqlarda qangbaq, Xorazmda katyon deb ataladi. Shu sababli misralarda "el" va "soy" so'zlari jumboq sifatida berilgan. Ushbu

topishmoqlarning barchasi qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, yashash muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli har bir topishmoqda predmet xarakteriga mos metafora tanlangan.

Topishmoqlarning milliy o'ziga xosligi, muhit, urf-odat, ma'naviyat bilan bog'liqligi ulardagi o'xshatishlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bitta predmet haqida turli xalq o'z dunyoqarashi, turmush tarzidan kelib chiqqan holda turlicha metafora tanlaydi. Masalan, tuxum haqida deyarlik barcha xalqlarda topishmoqlar yaratilgan: O'zbekcha variant:

Bir uyda ikki o'rtoq,

Biri sariq biri oq. (Topishmoqlar, 73-bet).

Turkman varianti:

Bir kuyzede iki tagam. (Edigenim edi, yildiz, II kitob, 16-bet).

Qoraqalpoq varianti:

Bir guzede eki suv. (Qoraqalpaq folklori, III tom, 75-bet).

Rus varianti:

V odnom bochke dva sorta vina. Tuxum timsoli o'zbeklarda "uy", turkman va qoraqalpoqlarda "ko'za", ruslarda esa "bochka" tarzida tasavvur qilingan. Tuxum ichidagi sariq va oq moddalar o'zbeklarda o'z ranglari tasviri orqali metaforalashgan. Turkmanlarda "ikki xil taom", qoraqalpoqlarda "ikki xil suv", ruslarda "ikki navdagi vino" sifatida gavdalantirilgan. Bu tasvirlarda har bir millat o'zining yashash tarzi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda metafora tanlaydi. Unda xalqning urf-odati, turmush tarzi, kasb mashg'uloti va hatto diniy e'tiqodigacha o'z ifodasiga ega bo'ladi. Millatning millatligi ham o'sha asnoda ro'yobga chiqadi.

II BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI MA'NODOSH – SINONIMIK TOPISHMOQLAR

2.1. Ma'nodosh topishmoqlarning asosiy xususiyatlari

Etnik kelib chiqishi bir xil bo'lgan xalqlar hayotida ijtimoiy –iqtisodiy hayotning turlicha, taraqqiy qilishi, turli sharoitlarda hayotiy tajribalarning boyib borishi, tilning ichki imkoniyatlar asosida rivojlanishi xalq ijodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkaza bordi. Qardosh xalqlar hayotida milliy o'ziga xoslikni anglash hissi kuchayib borishi tabiiy hol. Albatta bu jarayonning millatchilikka aloqasi yo'qligi ma'lum. Har bir millatning iqtidori, tafakkur doirasi, dunyoqarashi o'sib, rivojlanib boradi. Bu esa badiiy ijodda o'z aksini topadi.

Topishmoqlarning aksariyati ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, umumiylik bilan alohidalik hamisha yonma-yon yuradi. Umumiylik tushunchasining doirasi nihoyatda kengdir. Rus olimi I.V.Puxov xalqlarning og'zaki ijodiyotidagi umumiylik xususiyatlarining mavjudligi sababini ikkita omil bilan belgilaydi:

1. Xalqlarning etnik kelib chiqishi va madaniyatidagi umumiyliklar, shuningdek, hududiy yaqinlik;

2. Ijtimoiy rivojlanish shakllarining o'zaro o'xshashligi.

Turkiy xalqlarda bu ikkita omil to'raligicha mavjud bo'lib, ularning ta'siri xalq ijodiyotida, xususan topishmoq janrida to'la mujassamlashgandir.

Qadimiy yashash tarzi sari chuqur kirgan sayin bu umumiyliklar salmog'i oshib boradi. Ijtimoiy turmush, siyosiy-iqtisodiy rivojlanishning yuksalishi bilan xalqlardagi ma'naviy saviya ham taraqqiy qilib, ularning madaniy turmushida ijobiy hodisalar doirasi kengayib boradi.

Topishmoqlarning keyingi taraqqiyoti ham ana shu omillar bilan bog'liq. Milliy ong milliy mushohadani ro'yobga chiqaradi. Milliy mushohada esa badiiy ijodda o'z ifodasini topadi. Bu jarayon folklor asarlarida milliy o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Biroq, bu o'ziga xoslik umuminsoniylik doirasining ichida

namoyon bo'ladi.

“Xalq shaxslardan tashkil topgani kabi, insoniyat ham o'z individual qiyofasini saqlovchi, bir-birini tushunuvchi va qadrllovchi, lekin, o'ziga xoslikni tark etmaydigan xalqlardan tashkil topadi.

San'atda milliylik qanchalik yorqin aks etsa, unda chinakam umuminsoniylik ham shunchalik darajada o'z ifodasini topadi”.

Turkiy xalqlar topishmoqlarini qiyosiy tadqiq qilishda ham ushbu holatni ko'rish mumkin. Topishmoqlardagi milliy o'ziga xosliklar muhit, turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari bilan uzviy aloqadadir.

Turli xalqlarda, hodisalar, tushunchalar haqida faqat bitta emas, balki bir qancha topishmoq variantlari vujudga kelgan. Buning asosiy sababi bitta predmetga nisbatan qarashlarning tobora takomillashib borishi bilan aloqadordir. Umumturkiy dunyoqarash asosida shakllangan ayrim adekvat topishmoqlar xalqlarning turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari o'zgara borgan sayin yangidan-yangi variantga ega bo'la boshlagan. Ularga nisbatan hayotiy asoslarga ega bo'lgan yangidan –yangi metaforalar qo'llanila boshlagan. Bu holatni turli mavzuda yaratilgan topishmoqlar misolida ko'rish mumkin:

1. Inson a'zolariga aloqador topishmoqlar.

Sandiq to'la oq sadaf. (Topishmoqlar, 36-bet).

Agil doli akja guzim,

Gapisin yapsam, yokja guzim. (Edigenim yodi yildiz, I kitob, 122-bet).

Aydin kelde altin tas,

Ao' salsanda alinbas. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 50-bet).

Ushbu topishmoqlarda insonning tishi jumboqlangan. Bu namunalardagi “oq sadaf”, “oq qo'zi”, “oltin tosh” kabi metaforalar kishi e'tiborini tortadi. Negaki, har bir xalq tishni turli predmetlarga qiyos qilgan. Lekin asosiy belgi “oq” rang bilan belgilangan. Agarda har bir xalqning turmush tarziga razm solinsa, bu metaforalarning tasodifiy tanlanmaganligi ma'lum bo'ladi.

O'zbek xalqi o'troq hayotni ancha qadimdan boshlagan. O'zbekiston hududida bundan besh ming yil ilgari yuksak madaniyatga ega bo'lgan yirik

davlatlar paydo bo'lgan¹. Davlatchilikning rivojlanishi chorvachilik, dehqonchilik madaniyatining yuksalishi bilan birga hunarmandchilikning ham shakllanishi va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Topishmoqlarning o'zbek variantida "oq sadaf" birikmasining ishlatilishi o'sha hunarmandchilik bilan bog'liq turmush tarzining o'ziga xos akssadosidir.

Har bir xalq metafora tanlaganda o'ziga yaqin bo'lgan predmetlarga murojaat qiladi. Ayniqsa mehnat mashg'ulotlari inson dunyoqarashiga ko'proq ta'sir o'tkazadi.

Turkman xalqi ko'proq ko'chmanchi hayot kechirgan, o'troqlashish jarayoni ancha keyinroq boshlangan. Shu sababli ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Hatto ularning katta ikki urug'i ham oq qo'yli va qora qo'yli turkmanlar deb yuritiladi. Shu sababli turkmanlar hayotida qo'ychilik muhim o'tin tutadi. Topishmoqda: "Og'il to'la oqcha qo'zi" birikmasining tanlanishi tasodifiy hodisa emas. Turkman variantida topishmoqning ikkinchi misrasi ham mavjud bo'lib, unda "og'iz" jumboqlangan. Ya'ni og'izni yopish tishlarni yashirishi "eshikni yopsam oqcha qo'zilar yo'qoladi" iborasi orqali chiroyli ifodasiga ega bo'lgan. Ayniqsa misralardagi "oq", "yo'q" so'zlarining "oqcha" "yo'qcha" tarzida berilishi misralardagi ohangdorlik yuksakligini ta'minlagan. Qoraqalpoq variantida metaforalar ancha sezilarli o'zgargan, tish "oltin tosh" metaforasi orqali o'z ifodasini topgan. Ushbu topishmoqda qoraqalpoq xalqining mehnat mashg'ulotlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, qoraqalpoqlar hayotida chorvachilik, ovchilik va baliqchilik muhim o'rin egallagan. Bu hodisa ularning maqollarida ham o'zining yorqin izlarini qoldirgan:

Shol jag'alab qonbay

Kol jag'alab qon².

Xalqning milliy dunyoqarashi topishmoqda to'la aks etgan. Bu xulosani uchala variantga nisbatan qo'llash mumkin. Topishmoqlarda tish haqidagi metaforalarning og'izda joylashgan inson a'zosi haqida tasavvur berishidan

¹ Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnografiyasi. –T.: "Fan" 1985. – B.259-260.

² Qaraqalpaq folklori, IV tom, Nekis, "Qaraqalpaqstan", 1978. – B.63.

tashqari yana bir e'tiborli jihat borki, tishlar joylashgan og'izga nisbatan ishlatilgan metaforalar ham diqqatga sazovordir.

O'zbek variantida "oq sadaf", uning o'rni "sandiqlar"; turkman variantida "oqcha qo'zi" uning makoni "og'il", qoraqalpoq variantida "oltin tosh", uning joyi "oydin ko'l". Barcha qiyoslashlar mantiqan asosli va izchil tanlangan. Oq sadafning sandiqda, oq qo'zining og'ilda saqlanishi ma'lum. Oltin toshning ko'l tubida turishida ham qandaydir ramziylik mavjud. Xalq ertaklarida duru javohirlarning ko'l ostida yaltirab turishi lavhalari uchraydi. Darhaqiqat, xalq nazdida ko'l, suv sirli narsalar hisoblanadi.

Bunday olib qaraganda topishmoqlarning uchala variantida ham tanlama metaforalar har bir xalqning turmush tarzi va milliy tafakkuri bilan uzviy bog'liqdir.

Tish haqida boshqa xalqlar folklorida yaratilgan topishmoqlar ham yuqoridagi namunalarga juda yaqin keladi. Masalan, ruslardagi:

Polon xlevets belix ovets,

Topishmog'ini ham "og'il to'la oq qo'zi", tarzida tarjima qilish mumkin.

Qrim tatarlari folklorida esa "qo'zi" o'rniga "tovuq" tanlangan:

Bir aranim var,

Ichi tolu beyaz tavuk'. (Tatar folklori, 91-bet).

Bu topishmoqda ham "aran" — "og'il", "beyaz" — "bo'z-oq" ma'nolariga ega.

Topishmoqning Xorazmda tarqalgan variantida metafora uchun "oxur" va "oshiq" tanlab olingan.

Oxur to'la oq oshiq. (Xorazm folklori, XI tom, 39-bet).

Demak, tish haqida turli xalqlar folklorida yaratilgan topishmoqlarning biz ko'rib o'tgan variantlarining shakllanish ildizlari ancha qadimiylikka egadir.

Insonning organizmiga oid a'zolar kishilar uchun azaldan jumboq bo'lib kelgan. Shu sababli inson tanasida joylashgan barcha a'zolar topishmoqlar tarkibidan joy olgan. Ularning har biri ko'rinishi, vazifasi, rangiga, shakliga qarab jumboqlangan. Inson tanasida shunday a'zolar borki, ularning vazifasi, rangiga qarab xulosa chiqarish qiyin. Shu sababli ular bazan shakl jihatidan jumboqlangan.

Ayrim variantlarda esa uning shakliga ham e'tibor berilmasdan, hatto metaforasiz ifodaga tortilgan. Bu a'zo odamning kindigidir.

O'zimda bor,

Esimda yo'q. (Topishmoqlar, 41-bet)

Yalama yariq yuzunde,

Yagmpir atiq izi bar. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 131-bet).

Taqir jerde tay tuyaq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 52-bet).

Ushbu topishmoq variantlari garchi bitta narsa haqida birlashsalar-da, jumboqni ifodalashda turlicha tasavvur ishga solingan.

O'zbek variantida jumboqqa bo'lgan ishora nihoyatda murakkabdir. Bu erda kindikning inson o'zosi sifatida birorta xizmatni ado etmasligi, unga ehtiyot yo'qligiga ishora mavjud. Shu sababdan ham ikkinchi misrada "Esimda yo'q" birikmasi berilgan. Haqiqatan ham insonning barcha a'zolarining o'ziga yarasha xizmati bor. Unga inson hamisha ehtiyojmand bo'ladi. Kindikning o'sha amaliy ehtiyojga aloqasi yo'qligi topishmoqning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Bu jumboqni topish uchun jiddiy fikr yuritish talab etiladi.

Topishmoqning turkman varianti ham ancha murakkab, lekin unda ko'rgazmalilik kuchli. Unda suv ustiga yoqqan yomg'ir tomchisining o'sha suvda tushgan paytida iz qoldirishi, suvni o'yishi topishmoqning sirli tomonini tashkil etadi. Bu erda tekis yop (anhor)ning yuziga yomg'ir degan otning tuyuq izlari tushishi manzarasi berilgan.

Qoraqalpoq varianti bir muncha sodda ifodaga ega. Unda qorin-taqir erga o'xshatilsa, kindik ot tuyog'ining iziga qiyoslanadi.

Binobarin, bitta tushuncha, bitta predmet uchala variantda turli tasavvurlar asosida ro'yobga chiqqan.

Ayol siynasi to'g'risida ko'pgina metaforalar ishlatiladi. Ayniqsa she'riyatda uning "Qo'sha nor", "qo'sh cho'qqi tog'", "juft olma" kabi turlari ko'p uchraydi. Turkiy xalqlar topishmoqlarida ham insonning ushbu a'zosiga nisbatan turlicha metaforalar tanlangan. Shu narsani ta'kidlash joizki, she'riyatdagi ishlatilgan metaforalar bilan ularning topishmoqlardagi ekvivalentlari bir-biridan farqlanadi.

She'riyatda, xalq qo'shiqlarida qo'llaniladigan, biz yuqorida keltirgan metaforalar topishmoqlarda ko'zga tashlanmaydi. Buning sababi shuki, she'riyatda hissiyot kuchli akssado berganligi sababli ularda tanlangan metaforalar go'zallikni, intim tushunchalarni o'z jismiga singdirib oladi. Topishmoqlarda esa metaforalar yashirin xarakterga, shu bilan birga jiddiy fikrlashga asoslangan. Chunki, topishmoqlarni hali voyaga etmagan yoshlar ham aytishadi. Xalqimiz topishmoq yaratganda uning muxlislarini ham esdan chiqarishmagan.

Topishmoqlardagi metaforalarga nazar solsak, bunga amin bo'lamiz:

Bir palakda ikki handalak,

Esa ham ado bo'lmaydi,

Emasa ham ado bo'lmaydi. (Topishmoqlar, 41-bet).

Achilmadik sandikda,

Dadilmadik bal yatir. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 123-bet).

Egiz qozim suyeksiz (Qaraqalpaq folklori, III tom, 52-bet).

Ushbu topishmoqlarda tanlangan metaforalarda tashqi va ichki ma'no uyg'unlashgan. O'zbek va qoraqalpoq variantlarida ochiq metaforalar mavjud. Ular "ikki handalak", "egiz qo'zi" tarzida berilib, juftlik tushunchasiga ishora qiladi.

Turkman variantida botiniy ma'no ustuvorlik qiladi. Unda bokiralikka ishora qilish xususiyati mavjud. "Ochilmagan sandiq", "totilmagan bol" tushunchalari negizida ushbu tushuncha o'z ichki ifodasini topgan.

Uchala variantda uch xil metafora tanlanishiga qaramay, ularni ichki botiniy ma'no bilan bog'laydigan uzv bor. Bu uzv barcha variantlarda ishlatilgan metaforalar obyektining "oziqlanish" tushunchasini berish xususiyati bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ushbu metaforalarda she'riyatdagiga monand bo'lgan chuqur hissiyot bo'rtib ko'rinmaydi. Chunki, ular hissiyot qo'zg'ash uchun emas, balki, fikrlash, qiyoslash, o'ylash uchun mo'ljallangan. Ikkita janrning asosiy belgilari ham o'sha erda o'zini namoyon qiladi.

Inson organizmi a'zolari orasida ko'z va kiprikka aloqador topishmoqlar ham anchani tashkil etadi.

Turkiy xalqlar topishmoqlarida bu ikki a'zo turli ifodalar orqali gavdalantirilsa-da, ularda ichki tasavvur yaqinligi ko'zga tashlanadi:

Bir quduqning boshida qirq qiz,

Ham qopishar, ham tepishar. (Topishmoqlar, 32-bet).

Duypsuz deryah bashinda,

Duybi gumsuz gamish otir. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 126-bet).

Qara suda suo'at joq,

Qalin talda putaq joq. (Qaraqalpaq folklori, II tom, 50-bet).

Ko'z va kiprik haqidagi yaratilgan bu topishmoqlarda har ikkala a'zoga nisbatan mos va mutanosib metaforalar tanlangan. "Quduq", "tubsiz daryo", "Qora suv" metaforalari ko'zni; "qirq qiz", "qamish", "tol" metaforalari kiprikni ifodalashga safarbar qilingan. Har bir xalqning bu boradagi tasavvuri o'zgacha bir ifodani keltirib chiqargan. O'zbek va turkman variantlarida ko'zning chuqurcha, o'yiqlik ekanligi ko'proq nazarda tutilgan. Qoraqalpoq variantida o'sha tushuncha borligi holda uning qoraligiga nisbatan ham ishora mavjud. Shu bilan birga uchala variantda ham mantiq bir joyga kelib birlashadi, ularning negizida ko'zning tiniqligi solishtirilgan suv yotadi.

Kipriklarni anglatuvchi predmetlar tanlanganda ularning tik, adl bo'yiga asosiy e'tibor qaratilgan. "Qirq qiz" qomati shamshoddek qirq go'zal; "butoqsiz qamish" tik va adl o'sgan baland bo'yli qamish; "butoqsiz tol" qamish va adl o'sgan uzun-uzun tol novdalari kiprikning turli qiyoslashlar orqali ro'yobga chiqqan go'zal tashbehlarimetaforalaridir.

O'zbek variantida ularning ochilib –yopilishi ham go'zal ifodaga ega bo'lgan. Qoraqalpoq folklorida ham o'zbek variantidagi ushbu ifodaga mos keluvchi yana bir namuna mavjud:

Eki bala ayaqlasip atir,

Turasala tayaqlasip atir. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 48-bet).

Topishmoqlarning barcha variantlarida o'ziga xos milliy dunyoqarashlar o'z ifodasini topgan. O'zbek variantidagi "qirq qiz" birikmasi an'anaviy qirqliklarga aloqador bo'lib, ertak va rivoyatlardagi tasvirlarni esga soladi. Turkman variantida

sahro va ko'l o'simligiga metafora sifatida murojaat etilgan. Qoraqalpoq variantida qadimiy qurilish vositasi bo'lgan tol kiprik qiyofasida berilgan. Bularning hammasi har bir xalqning turmush tarziga ozmi-ko'pmi aloqadordir.

Ko'z, kiprik, umuman inson organizmi a'zolari haqidagi topishmoqlar dunyodagi barcha xalqlarda ko'plab uchraydi. Ulardan ayrimlariga e'tibor qaratilsa, metaforalarning mahalliy xarakter kasb etganini anglash qiyin emas. Masalan armanlarda ko'z va kiprik haqida quyidagi topishmoq bor:

Glaz-mindal a po krayam shipi.

Ko'z –bodom, tevaragi tikanak.

Bu topishmoqda Kavkaz mintaqasiga xos metafora tanlangan. Turkiy xalqlar topishmoqlarida ko'zga nisbatan ishlatilgan metaforalarda uning mazmuni nazarda tutilgan bo'lsa, arman topishmog'ida shaklga e'tibor qaratilgan. Bodom ellips shaklida bo'lib ikki tomoni burchak shaklida ekanligi bevosita ko'zni eslatadi. Kiprikni tikanga o'xshatish esa boshqa xalqlarda ham ko'p uchraydi.

Insoniyat hamisha tabiat og'ushida yashab kelgan. Shu boisdan inson va tabiat munosabati qadimiy tarixga ega. Ibtidoiy hayot davrida tabiatda kechadigan har bir hodisa inson uchun mo'jiza bo'lib tuyulgan. Shuning uchun ham ushbu toifaga kiruvchi topishmoqlarda magik tasavvurlar ko'plab uchraydi. Eng avvalo ibtidoiy insonni kecha-kunduz, qish-yoz kabi mavsumlar juda qiziqtirgan. Ular bu hodisalarning tub mohiyatini bilmaganliklari uchun turli –tuman animistik tasavvurlar paydo bo'lgan. Masalan, yil, 12 oy, kecha-kunduz haqida turkiy xalqlar folklorida to'qilgan topishmoqlarning turli variantlari uchraydi:

Bir tup terak,

Tubi bir, shoxi o'n ikki,

Yaprog'i uch yuz oltmish,

Yaprog'ining bir tomoni oq,

Ikkinchi tomoni qora. (Topishmoqlar, 24-bet).

Bir agajim bar on iki shaxali,

Xer shaxasi otuz yaprakli,

Yapraklarniñ bir yuzi-ak, bir yuzi-gara.

(Edigenim edi yildiz, I kitob, 111-bet).

Bir tup terek,

Terekte on eki putak,

Hər putaqta otiz tayak,

Bir jag'i qara, bir jag'i aq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 43-bet).

Topishmoq variantlarida tasavvur bir-biriga yaqin. Yil daraxt siymosiga ko'chgan. Buning asosiy sababi, inson daraxt va o'simliklar dunyosi bilan birga yashab kelgan. Daraxt inson uchun juda asqotgan. Undan ov qurollari yasashgan, uy, kapalar qurganlar, yoqib oloviga isinganlar. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, daraxt shoxalarga, butoqlarga, yaproqlarga ega. Bu holat yil va uning tarmoqlariga juda mos tushadi.

Har bir xalq yil, oy va kunni turlicha talqin qilib, bittasi shoxa, bittasi butoq, bittasi yaproqni o'zaro almashtirgan. Biroq, kunduz va kecha bir xil tasavvur orqali oq va qora tarzida belgilangan.

Oy va kunlarni o'zida jumboqlagan topishmoqlar bilan birga yil mavsumlari, xususan, yoz va qish haqida to'qilgan jumboqlar ham anchani tashkil etadi:

Bostirdim ikki tovuq,

Biri issiq, biri sovuq. (Topishmoqlar, 20-bet).

Oy gapdalinda iki tut,

Biri el, biri guri. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 118-bet).

Jol ustinde nəro'an terek,

Shaqasi əlemge kerek.

Bir miyo'esi ashshi,

Bir miyo'esi dushshi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 43-bet).

Inson hayotida yoz bilan, qishning farqi juda katta. Ayniqsa, ibtidoiy turmush davrida qish inson uchun qattiq qiyinchiliklar olib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida "qora qish" iborasi bilan birga "Yoz guliston-qish zimiston" degan maqol yuradi. Bu ikki fasl haqida yaratilgan topishmoqlarda hamisha ana shu ikki simvol o'zini namoyon qilib turadi. Topishmoq variantlarida ikki fasl uchun ikki metafora tanlangan. Bu metaforalar antiteza usuliga qurilgan. "Biri

issiq-biri sovuq”, “biri ho‘l, biri quruq”, “biri achchiq-biri chuchuk”. Yoz va qish haqida har bir xalq o‘z tasavvuri nuqtai nazaridan kelib chiqib metafora tanlaydi. Bu metaforalarning barchasi ikki faslning xususiyatini turlicha tarzda ifodalaydi.

Biz bu erda turkiy xalqlar folkloridagi ayrim namunalarni keltirdik. Bu mavzuda ko‘plab topishmoqlar mavjud. Ularning orasida adekvat namunalar ham bor. Qish va yozning turli xususiyatlari turli topishmoqlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tabiat hodisalari orasida osmonda paydo bo‘luvchi bulutlar ham insonlarda turlicha tasavvurlar tug‘dirgan. Chunki bulutlar ham qish va yoz mavsumlariga uzviy aloqadordir.

Bulutlar osmonda ko‘chib yurganligi uchun ibtidoiy inson uni jonli narsa sifatida tasavvur qilgan. Unga nisbatan tanlangan metaforalar ham ham har xil:

Shildir-shildir juganim,
Suluv qashqa do‘nonim,
Ayoqli kun yurmagan,
Oyog‘i erga tegmagan.

Oyog‘i yo‘q qochadi,
Qanoti yo‘q uchadi. (Topishmoqlar, 16-bet).

Balkan dagiñ bashindan,
Balik gechip barya-la!
Öyken bagri suyrenip,
Göz-yash edip barya-la!

Bir gërsem, bar,
Bir gërsem, yok. (Edigenim edi yildiz, I kitob, 110-111-betlar).
Balqan tao‘diñ basinda,
Baliq ketip baradi,

Quyriq-qalashi bao'rinda,

Tiyip ketip baradi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 40-bet).

Topishmoqlarda bulutning beqarorligi, bir joyda turmasligiga va rangiga ko'proq e'tibor berilgan.

O'zbek variantida bulutning ikki xususiyatiga e'tibor jalb etilgan. "Jugan", "qashqa" so'zlari oq rangni bildiradi. Do'non esa otni bildirib, bulutning chopib yurishiga ishoradir. Keyingi ikki misra bulutning qattiq sovuqda paydo bo'lmasligini bildiradi.

Turkman va qoraqalpoq variantlarida bulutning ko'chishi, o'ynashi baliqqa taqqoslangan. Bulutning aylanib, goh quyuqlashib, goh siyraklashib, yomg'ir yog'dirib borishi keyingi ikki misrada jonlantirilgan.

Qoraqalpoq variantida ham o'sha ifoda sal boshqacha tarzda berilgan. Unda bulutlarning biri ikkinchisining ustiga minib, aylanishi tasviri namoyon bo'lgan.

Barcha variantlarda bulutni jonlantirish usuli orqali tasvirlash ko'zga tashlanib turadi. Ularda ot, baliq kabi jonzotlar obrazi berilib, ular siymosida bulut nazarda tutiladi. Bu xususiyat boshqa xalqlar topishmoqlarida ham uchraydi. Masalan, rus topishmoqlarida bulut ramzi sifatida burgut namoyon bo'ladi:

Letit orlitsa po sinemu nebu

Krilya raplastala,

Solnishko zastlala. (Russkiy folklor, I. XII . S.157).

Turkiy versiyalarda bulutning o'ynoqlashiga asosiy-e'tibor qaratilib, ot va baliq timsollari tanlangan. Rus topishmog'ida lochinining qanotlarini yozib quyosh nurlarini to'sishi asosiy jumboq qilib olingan. Ushbu metaforalarning barchasi xalqning dunyoqarashi, eng asosiy mintaqa va uning xarakter-xususiyati bilan bog'liqdir.

O'rta Osiyo sharoitida osmondagi bulut tez-tez o'zgarib turadi. Rossiya sharoitida haftalab quyosh ko'rinmasligi mumkin. Ushbu xususiyatlar topishmoqlarda aks etmasdan qolmaydi.

2.2. Hayvonlar, qushlar va hasharotlar haqida yaratilgan topishmoqlar

Hayvonot olami insonlarga eng yaqin jonzotlardir. Ulardan ayrimlarining totem sifatida e'zozlanishi ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Ibtidoiy madaniyat haqida tadqiqot olib borgan M.O. Kosvenning ta'kidlashicha, dastlab it, keyin esa ot uy hayvoniga aylantirilgan³. Dastlab qo'lga o'rgatilgan eng yaxshi naslli otlarning vatani Turkmanistondir⁴.

Itning dastlabki uy hayvoniga aylantirilishi ibtidoiy jamiyatdagi ovchilik bilan aloqadordir. O'troq hayot boshlangandan keyin esa u uy soqchisi vazifasini bajargan, ayrimlari esa chorvachilik bilan bog'liq holda cho'ponlarning doimiy yo'ldoshiga aylangan. Inson hayotiga, uining turmushiga eng yaqin bo'lgan bu hayvon haqida ko'plab topishmoqlar yuzaga kelgan. Bu topishmoqlarda dastlab uning qo'riqchilik vazifasiga asosiy e'tibor qaratiladi:

Soyada yotar,

Ming qo'y boqar.

El yotsa ham,

Shalpang quloq yotmaydi. (Topishmoqlar, 56-bet).

Dert sutunli gapimiz,

Notanishi gechirmez. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 53-bet).

Kundiz tulip, tunde qulip. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 69-bet).

Har bir variantda bitta masalaga turlicha ifodalar orqali yondoshiladi. Asosiy masala itning soqchi ekanligini yoritishdir. O'zbek variantida itning cho'ponlik qilishi va kechasi uyni qo'riqlashi sodda tilda bayon qilinadi. Metafora sifatida tashqi ko'rinish hisobga olinib "shalpang quloq" so'zi tanlangan.

Turkman variantida itga nisbatan "to'rt oyoqli eshik" metaforasi qo'llanilgan. U shunday eshikki, notanish kishining kirishiga yo'l qo'ymaydi.

Qoraqalpoq varianti juda ixcham va sodda ifodalanib, uy soqchisiga nisbatan "qulf" metaforasi qo'llanilgan.

³ Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. –B. 81.

⁴ O'sha kitob. – B.84.

Topishmoqning badiiy tomondan barkamolligi shundaki, unda antiteza usulidan juda o‘rinli foydalanilgan. “Kunduz hech kim bilan ishi yo‘q, kechasi ishonchli soqchi” degan ma’no topishmoqning jismiga mahorat bilan singdirilgan. Itning hayotdagi o‘rni va vazifasini har bir xalq o‘ziga idrok qilgan va yuksak badiiy mahorat bilan uni ifodalay olgan. Topishmoqlar qaysi bir hayvon haqida yaratilmasin, unda o‘sha hayvonga xos ko‘rinish, qiliqlari, hayotdagi vazifasi turli o‘xshatishlar orqali o‘z ifodasiga ega bo‘ladi.

Ot haqidagi gap ketganda uning chopqirligi, va chidamliligi asosiy e’tibor qaratiladi:

To‘rtta uning oyog‘i,

Temir mixli tuyog‘i.

Manzilga etishtirar,

Toshdan o‘tkir tuyog‘i. (Topishmoqlar, 268-bet).

Atan erim oydur,

Basan erim baydur,

Bir elimde bildirgich,

Bir elimde shildirgich. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 46-bet).

Dubir-dubir terteo‘,

Dubirlegen beseo‘,

Qoyan qos quloq,

Oniñ menen oltao‘. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 62-bet).

O‘zbek variantida otning chopqirligiga asosiy e’tibor qaratilgani holda, tuyog‘idagi taqasiga ham ishora qilingan. Chunki, otdan boshqa biror hayvonning oyog‘iga taqa qoqilmaydi. Topishmoqdagi asosiy yashirin va otga xos xususiyat ana shu taqaga ishora qilishda ko‘rinadi.

Turkman variantining to‘rt misrasida to‘rtta narsa yashirilgan.

Birinchi misrada otning beli nazarda tutilgan. Ya’ni “O‘y” so‘zi otning elkasi va orqa oyoqlari orasidagi o‘yiq joyni anglatadi. Ikkinchi misrada otning egari haqida gap ketayotir. Egarda viqor bilan o‘tirish “boy”ga qiyoslanadi. Uchinchi misradagi “bildirgich” qamchini, to‘rtinchi misradagi “shildirgich”

yuganni anglatadi. Ya'ni chavandoz qamchi bilan otga fikrini bildiradi, yugan bilan uni "jildiradi"-harakatga keltiradi.

Qoraqalpoq variantida ham otning chopqirligiga va barcha a'zolarining ushbu harakatdagi ishtirokiga tavsif beriladi.

Ot haqidagi topishmoqlarning aksariyati uning quyrug'i bilan bog'lanib ketadi.

Suvga tushsa mingta,

Suvdan chiqsa, bitta. (Topishmoqlar, 48-bet).

Dashdan gorse'm, bir yup,

Yanina gelse'm, muh yup. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 52-bet).

Tubi bir, shaqasi mih. (Qaraqapaq folklori, III tom, 62-bet).

Ushbu topishmoqlarga monand keladigan namunalar Ozarbayjon folklorida ham uchraydi:

Suva girdi dog'ildi,

Suvdan chixdi yig'ildi⁵.

Otning dumi haqidagi topishmoqlar o'zaro juda o'xshash. O'zbek, turkman va qoraqalpoq variantlarida uning ko'pligi ming, yig'ilib turishi bir raqamlari asosida ifodalangan. Ozarbayjon variantida suvga tushganda "dog'ildi" –yoyildi, chiqqanida yig'ildi tarzida juda chiroyli ifodaga ega bo'lgan.

Turkiy xalqlar hayotida eshak ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Yuk tashish, Xorazm mintaqasida xoroz (untegirmoni) haydash ishlarida, ba'zan chiqir o'qini aylantirib suv chiqarishda bu hayvondan foydalanganlar. Shu sababdan bo'lsa kerak eshak haqidagi topishmoqlarda uning mehnatkashligiga ko'proq ahamiyat beriladi:

Qulog'i uzun

Dumi kalta.

Doim ustida,

Yurar xalta. (Topishmoqlar, 48-bet).

Axmet agam pishekər,

⁵ Husainova Z. O'zbek topishmoqlari. – B. 57.

Samandan bœvrek yasar. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 46-bet).

Digir –digir tœrteo‘i,

Jelpildeydi ekeo‘i,

Jœdigerdiŋ jalg‘izi,

Oniŋ menen jeteo‘i. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 67-bet).

O‘zbek variantida berilgan “Xalta” so‘zi eshakning mehnatkashligiga ishoradir. Turkman variantida “peshakor” so‘zi uning ishga ustaligini bildirish uchun qo‘llanilgan. Ikkinchi misrada esa uning somon eb, “bo‘rak” ka o‘xshash tezaklashiga ishora bor.

Qoraqalpoq variantida uning to‘rt oyog‘i, ikki qulog‘i, bitta quyrug‘i haqida so‘z boradi. Biroq, birinchi misradagi “digir-digir” juft so‘zi eshakning tinmasdan yurishini anglatib, uning negizida ham bu hayvonning mehnatkashligiga ishora mavjud.

Turkiy xalqlar topishmoqlarida ilonga aloqador namunalar juda ko‘p. Buning asosiy sabablaridan biri uning totem bilan bog‘liqligi bo‘lsa kerak. Chunki, “Xorazm ilon totemining qoldiqlari hozirda ham bor. Yosh bolalarning do‘ppisiga “Ilon boshi” deb nomlanuvchi tumor taqish odati chekka qishloqlarda yaqinlargacha bor edi. Ilonning po‘stini isiriqqa qo‘shib tutatish odati ham ko‘p joylarda mavjud edi”⁶. Topishmoqlarda ilonning uzunligi, yaltiroqligi, to‘lg‘onishi, zahar sochishi va boshqa turli xususiyatlari turli ifodalar orqali tasvirlanadi:

Og‘zin ochar,

Zahar sochar,

Ko‘rgan qochar.

Har joyda egri ketadi,

O‘z iniga to‘g‘ri ketadi. (Topishmoqlar, 66-bet).

Orakdan egri,

Okdan dogri. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 37-bet).

⁶ Ro‘zimboev S. Sobirova N. “Avesto” mifologiyasi va Xorazm folklori. Urganch, “Xorazm ma‘mun akademiyasi”, 2001. – B.36.

Yaldiravuk ay yali,

Egriligi yay yali,

Zəxeri bar möy yali. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 62-bet).

Denesi shubar,

Tog‘ayliqtan suo‘irlip shig‘ar.

Tir jalaḥash suyretken,

Koringendi jiyretken,

Jaqlinlasa ayao‘ joq,

Saqliqqa bizdi uyretken. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 73-bet).

O‘zbek variantida ilonning ayovsizligi va egri-bugriligi, kerak bo‘lsa to‘g‘ri bo‘lishi topishmoq mazmuniga singdirilgan. Asosiy urg‘u zahar va egrilikka qaratiladi.

Turkman varianti ham o‘sha fikrga yaqin. Shu bilan birga unda ilonning oy kabi yaltillashi, lekin mo‘y kabi (kichikkina) zaxri borligi qayd qilinadi.

Qoraqalpoq variantida ham ilonning chipor tanasi, ko‘rganning undan jirkanishi, uning ayovsizligi haqida so‘z boradi. Misraning oxirida bizni ehtiyotkorlikka o‘rgatadi, deya yakun yasaladi.

Binobarin, ilon haqidagi topishmoqlarda bu jonzotga nisbatan salbiy munosabat kuchliroq akssado beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu topishmoqlar ilonning totem sifatidagi inonchlari susaygan vaqtlarda yuzaga kelgan bo‘lsa kerak.

Topishmoqlar orasida chumoliga aloqador namunalar ham ko‘p uchraydi.

Bu jonzot haqida og‘zaki va yozma adabiyotda ko‘plab qaydlar uchraydi. Eng asosiysi chumoli barcha jonivorlar orasida o‘zining tirishqoqligi va mehnatsevarligi bilan alohida ajralib turadi:

Burang, burang, burang ot,

Beli qayqi kurang ot,

Tog‘i-toshdan qayrilmas,

Oyoqlari tayrilmas. (Topishmoqlar, 78-bet).

Toqqa beli bog‘li qul chiqyapti. (Xorazm folklori, XI tom, 40-bet).

Xay-xay atim, xay atim,

Bili inche tay atim,

Ўz rizkiniڭ izinda,

Dag –dashdan taymaz atim. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 60-bet).

Jeleڭ –jeleڭ, jeleڭ at,

Beli bayli gureڭ at,

Hay zang‘ardiڭ jurisi,

Dizbeklesip shabisi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 84-bet).

Uch variantda uch xil tasvir ko‘zga tashlansa-da, ularda bitta uslubiy umumiylik e‘tiborni tortadi. Uchala variant ham mazmunan o‘ynoqi, she‘riy misralarda o‘z ifodasini topgan.

Topishmoqlarning dastlabki ikki misrasi xuddi qo‘shiqlardagi kabi parallelizmlar bilan boshlanadi. Ulardagi alliteratsiya elementlari topishmoqning ohangdorligini ta‘minlaydi. O‘z navbatida bu qatorlar topishmoqning mazmuniga ham salmoqli ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbek variantidagi “burang” so‘zi chumolining harakatiga daxldor bo‘lib, “buralib yurish” ma‘nosiga ega. “Kurang” esa, “Kuramoq” so‘zidan olingan bo‘lib, chumolining er qazishini esga soladi.

Turkman variantidagi ikki misrada chumolining “beli ingichka tōy” ekanligi ta‘kidlanadi. Qoraqalpoq variantidagi birinchi misrada chumolining engil va tez harakatiga e‘tibor qaratilgan. Ikkinchi misradagi “gureڭ” so‘zi o‘zbek variantidagi “kurang” so‘ziga muqobil keladi.

Topishmoqlarning har uchalasida ham chumoliga nisbatan “ot” metaforasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu o‘xshatish tasodifiy emas, balki, chumolidagi kuch-quvvatning timsolidir. Chunki, xalq nazdida ot kuch-qudrat ramzidir. Chumoli o‘zi kichik bo‘lsa-da, uning jasorati otni esga soladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak topishmoqlarning oxirgi ikki misrasida uning “toymas” ligi, rizqi-ro‘zi uchun tolmasligi, horib-charchamasligi kabi xislatlari mujassamlashgan.

Chumoli haqida Xorazmda yaratilgan namunada ham tasvir boshqacha berilgan bo‘lsa-da, uning ma‘nosi chumolining zahmatkashligiga kelib bog‘lanadi.

“Beli bog‘li qul” iborasining negizida ham jasorat va ishchanlik tushunchalari mavjud. Ilgarigi zamonlarda asosiy mehnat qul elkasiga yuklangan. Ushbu ijtimoiy tushuncha topishmoqda saqlanib qolgan. Qolaversa, “beli bog‘li” birikmasi ikki ma‘noni o‘zida tashiydi. Birinchisi, chumolining shaklini belgilaydi. Ikkinchisi, “bel bog‘lamoq” birikmasida ishchanlik, ishga kirishish ma‘nolari o‘z ifodasini topgan. Xorazmda chumolini “Qorinja” tarzida nomlashadi. Bu so‘z “Qorniinja” so‘zlarining birikib, fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. Yuqoridagi “beli bog‘li” iborasida ana shu “ingichka,inja”likka ham e‘tibor jalb etilgan.

Shu narsani ta’kidlash kerakki, bu jonzot haqida boshqa xalqlar folklorida ham ko‘plab topishmoqlar to‘qilgan. Ularda ham chumolining mehnatsevarligiga asosiy urg‘u berilgan:

Hama qaror, o‘ beqaror, shabu ro‘z

Junbishu kor.(So‘fiev A.Ko‘rsatilgan avtoreferat, 21-bet).

Tojik folkloridagi bu topishmoq “hamma tinch, u notinch, kechayu kunduz tinmasdan ishlar” degan ma‘noga ega.

Insoniyat tabiat og‘ushida yashar ekan, ularning hayotini qushlar olamisiz tasavvur qilish qiyin. Ibtidoiy hayot davrida ayrim qushlarning totem bo‘lganliklari ham ma‘lum. Ularning ayrimlari haligacha xosiyatli, muqaddas qush sifatida e‘zozlanadi. Shulardan biri qaldirg‘ochdir. Bu qush haqida afsonalar juda ko‘p. Shuningdek, topishmoqlar ham tez-tez uchrab turadi:

Zuv-zuv barag‘ay,

Tomdan qarag‘ay,

Cho‘p, loy cho‘qigay,

Savat to‘qigay, (Topishmoqlar, 71-bet).

Asti goyun,

Usti gechi,

Burni polat,

Guyrugi gaychi. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 46-bet).

Zuo‘-zuo‘ baradi,

Əl hao‘adan qaraydi,

Shəp-shardi shoqiydi,

Ilaydan sebet toqiydi. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 79-bet).

Topishmoqlarning o‘zbek va qoraqalpaq variantlari o‘zaro juda yaqin. Unda qaldirg‘ochning uchib-qo‘nishdagi tezlik xususiyati va “Savat” metaforasi orqali in qurish jarayoni hisobga olingan.

Turkman varianti sal murakkabroq metaforalar orqali o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Uning to‘rt misrasida ham yashirin metafora hosil qilingan. Unda tasvirlanishicha, qaldirg‘ochning usti qo‘yga, osti echkiga o‘xshaydi. Bu o‘xshatish qushning pati va undagi rang bilan aloqador. Uchinchi misrada qushning tumshug‘i “po‘lat”dek mustahkamligiga va oxirgi misrada dumining qaychiga monandligi e‘tiborga olingan.

Umuman, qaldirg‘och haqidagi topishmoqlarda ushbu qushga nisbatan mehr, e‘zoz o‘zini namoyon qilib turadi.

2.3. Mevalar, poliz va turli ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlar

Insoniyat hayotida dehqonchilik, bog‘dorchilik mashg‘ulotlari paydo bo‘lib, rivojlanish sari qadam qo‘yganidan keyin turli mevalar, poliz va sabzavot ekanlariga aloqador turli tasavvurlar inson ongida o‘z aksini topa bordi.

Turkiy xalqlarning barchasi ham o‘troq hayot bir vaqtda shakllanmasa-da, ular orasidagi o‘zaro aloqa, iqtisodiy –madaniy munosabatlar natijasida dehqonchilik va bog‘dorchilikka oid turli tushunchalar mazkur xalqlar hayotiga to‘la kirib bordi. Natijada ushbu mashg‘ulotlar bilan bog‘liq mahsulotlar haqida turli-tuman topishmoqlar yuzaga keldi.

Turkiy xalqlar hayotiga bog‘dorchilik paydo bo‘lmasdan oldin, to‘qaylarda va suv bo‘ylarida yovvoyi holda o‘sadigan jiyda daraxti kirib keldi. Bu daraxt parvarish talab qilmagani holda juda mahsuldordir. Shu sababli bu daraxt hisoldorlik kultlari bilan bog‘lanib ketadi. Har yili bahorda ekin ekilayotganda o‘sha ekin hosildor bo‘lsin, degan umidda urug‘ bilan birga bir hovuch jiyda

tuxumi ham sohib yuboriladi.

Bu daraxt mevasi hamisha xalq uchun non kabi oziq bo‘lib kelgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak jiyda haqida ko‘plab topishmoqlar to‘qilgan.

Tashi gulgun,

Ichi un-un,

Uning ichi ustun. (Topishmoqlar, 85-bet).

Xorazm varianti:

Teshasiz yo‘nilgan,

Tegirmonsiz un bo‘lgan,

Ignasiz tikilgan, (Xorazm xazinası, 75-bet).

Kelte boyli,

Qizil donli,

Ak keynekli bir yigit. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 71-bet).

Sirti qizil, ishi aq,

Arasinda bir tayaq. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 93-bet).

Topishmoqlarning deyarlik barchasida qizil va oq ranglar bilan bog‘liq metaforalarga murojaat qilingan. Jiydaning ichi oqligi bazan “un” so‘zi bilan ifodalangan. Chunki, rang va mohiyat jihatidan jiydaning ichidagi mevasi bilan un o‘rtasida deyarlik farq yo‘q. O‘zbek va qoraqalpoq variantlarida jiydaning ichidagi o‘zakka ham ishora bor bo‘lib, “ustun” va “tayoq” metaforalari orqali o‘z ifodasiga ega bo‘lgan.

Xorazm variantida jiydaning asosiy mohiti aks etsa-da, undagi yashirin ifodalar ancha alohidaliklarga ega. Undagi teshasiz yo‘nilgan iborasida “qoziq” tushunchasi bor bo‘lsa, ignasiz tikilgan iborasida jiydaning po‘stidagi yaxlitlik, butunlik tushunchasi o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Shuningdek, “un” metaforasi ham jumboqlangan.

Turkman variantida jiyda kalta bo‘yli, qizil to‘nli, oq kuylakli yigit qiyofasida jumboqlangan bo‘lib, yashirilgan predmetning barcha xususiyatlari inson tushunchasiga ko‘chirilib, chiroyli tasvir yuzaga chiqqan. Jiydaning tashqi po‘stiga nisbatan to‘n metaforasini tanlash uyg‘ur topishmoqlarida ko‘zga

tashlanadi:

Teshi tondək,

Ichi undək. (Uygʻur xaliq yogʻiz ijadiyiti, 180-bet).

Xullas, turkiy xalqlarning barchasida jiydaga nisbatan ishlatilgan mushtarak metaforalar bilan birga alohidalikni yuzaga chiqaruvchi oʻxshatishlar ham anchani tashkil etadi.

Oʻrta Osiyo mintaqasida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar orasida anor haqida toʻqilgan topishmoqlar juda xarakterlidir. Chunki bu meva oʻzining tuzilishi, rangi bilan koʻpgina sirli metaforalarning tugʻilishiga sababchi boʻlgan. Bu fikrni yozma adabiyotga nisbatan ham aytish mumkin.

Oʻzbek topishmoqlari orasida anorni jumboqlagan namunalardan ettitasi keltirilgan.

Qirq hujrada qizil qizlar.

Eshigi, ostonasi yoʻq,

Hujrada mehmon toʻliq. (Topishmoqlar, 88-bet).

Xorazm varianti:

Qorni ming qiz koʻtargan,

Qizil toʻnli, kalta kiyvoni. (Xorazm xazinasi, 81-bet).

Yumurdigim gizilja,

Juyjesiniñ sani yok. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 76-bet).

Kishkene gʻana zereḡshe,

Ishi toli miyiqsha. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 92-bet).

Anor haqida yaratilgan topishmoqlarga nazar tashlaganda unga xos boʻlgan uchta xususiyatga eʼtibor beriladi va jumboq sifatida yashirin metaforaga bogʻlanadi. Bular-mevaning predmet shakli: “Hujra”, “kalta kayvoni”, “yumruq”, “yumaloq qattiq predmet”(zereḡshe); rangi: “qizil”, “qizilcha”; ichidagi donalari: “qizlar”, “joʻja”, “miyiqcha”, “mehmon”.

Oʻzbekcha variantlarda anorning predmet shakli hujraga, ichidagi donalari qizlarga, mehmonlarga taqqoslanadi. Uning Xorazm variantida predmet shakli qizil toʻnli kayvoniga bogʻlanadi. Bu variantda oʻziga xos bir mantiq mavjud.

“Qornida ming qiz ko‘targan kayvoni” iborasida “kayvoni” so‘zi tanlangan, “katxudo” emas. Mantiqqa ko‘ra, qizil to‘nni ayol kishi kiyadi, qornida qiz ko‘taradigan ham ayoldir. Qarangki, anorning rangi va ichidagi donalarni mantiqiy asosda tasvirlash uchun ayol tanlangan. Bu hodisa ajdodlarimiz tafakkuri mevalaridir. Bu “kayvoni”ning “kalta”ligi predmet shaklining kichikligiga urg‘u berishdir.

Turkman variantida predmet shakli uchun yumruq olingan bo‘lib, u ham shakl va rang jihatidan mantiqiy asosga ega. Anor donalarini sonsiz “jo‘ja” timsolida berish ularning kichikligi bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Qoraqalpoq variantida timsollar boshqacha olinsa-da, ma‘no mohiyati yuqoridagi tasvirlarga to‘la mos keladi. “Zerenshe” so‘zi “zarang” so‘zining kichraytirilgan ma‘nodagi shaklidir. Odatda, yumaloq, qattiq predmet zarang ma‘nosini beradi. “Miyiqcha”, “miyiq” so‘zining kichraytirilgan ko‘rinishidir. Unda anor donalarining ko‘pligini va kichikligini ifodalovchi ma‘no mujassamlashgan.

Bu mevani har bir millat o‘zgacha tasavvur qiladi va o‘z turmushi nuqtai nazaridan metafora tanlaydi. Yuqoridagi namunalar buni tasdiqlaydi.

Uyg‘ur xalqiga tegishli topishmoqda esa anorning qizil suviga nisbatan timsol ishlatilgan xolos:

Qeni bar, jeni yoq. (Uyg‘ur xalik eg‘iz ijodiyiti, 181-bet).

Topishmoq qisqa shaklda berilib, “qon” va “jon” metaforalari orqali ifodaga tortilgan.

Poliz ekinlari haqida to‘qilgan topishmoqlarning aksariyati qovun o‘simligi bilan aloqadordir. Manbalarda ushbu mavzudagi topishmoqlarning o‘zbek variantlaridan o‘n ikkitasi, turkmanlarda ettitasi, qoraqalpoqlarda o‘ntasi e‘lon qilingan. Bu variantlarning katta-ko‘pchiligi she‘riy, bir qismi nasriy tarzda yaratilgan. Ulardan ayrim namunalar keltiramiz:

Bozordan bir narsa ol,

Ham o‘zing e, ham tovug‘ing esin,

Ham moling esin. (Topimoqlar, 99-bet).

Xorazm varianti:

Bir qush tutdim qoni yo‘q,

So‘yib edim joni yo‘q,

Ichinda uch yumurta,

Jo‘jasining soni yo‘q. (Xorazm xazinasi, 60-bet).

“Gup” etdi-göbeklendi,

“Tap” etdi-tabaklandi,

Gulladi, secheklendi,

Xay-xay zalim, pichaklandi! (Edigenim edi yildiz, II kitob, 67-bet).

Bir uydiñ ishinde ush kørpeshe jiyio‘li-tur,

Esige de doq, tesigi de joq,

Qonaq kelse ashilar. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 88-bet).

Topishmoq variantlarida qovunning turli xosiyatlari nazarda tutilgan. O‘zbek variantlarining birinchi namunasi aslida ertaklar tarkibida uchraydi. Unda ertak qahramonlaridan biri shart qo‘yadi va shart topqirlik bilan uddalanadi. Darhaqiqat qovun shunday eyimlikki, uning mag‘zini inson, tuxumini parrandalar, po‘chog‘ini mol iste‘mol qiladi. Bu topishmoqda qovunning biror xususiyatiga metafora vositasida urg‘u berilmaydi. Biroq, unda qo‘yilgan shart uch xususiyatga ega bo‘lgan narsani o‘ylab topishga qaratilgan.

Xorazm variantida uchta jumboq berilgan. Qush-uzunchoq gavdasi bilan qovunga o‘xshaydi; Ichidagi uchta tuxum pattalari-yumurta; jo‘jalar-tuxum pattalariga joylashgan donalar. Shu bilan birga uning qush emasligiga ishora ham bor bo‘lib, bu “joni yo‘q” birikmasi orqali yuzaga chiqadi.

Turkman varianti juda qiziqarli lavhalardan tashkil topgan.

Birinchi misrada qovunning erga ekilishi haqida so‘z boradi. “Göbek” turkman tilida kindikni bildiradi. Qovun erga ekilganda er qaziladi, tuxum tashlanadi, uning ustiga tuproq tashlanib, “gup” etib, belkurak uriladi. O‘sha er xuddi kindikka o‘xshab o‘ydiq shakliga kiradi.

Ikkinchi misrada “tap” etib ko‘karadi va palak yozadi. Keyin gullaydi, tugadi. Nihoyat “pichoqlanib” so‘yiladi. Bunday jumboqlanishni echish kishidan

qovun ekish jarayonini bilishni talab etadi.

Qoraqalpoq varianti ham ancha qiziqarli lavhalarga boy. Bu jumboqda eshigi, teshigi yo‘q bo‘lgan uyning ichidagi “uch ko‘rpacha” asosiy metafora sifatida ko‘zga tanlanadi.

Bu uyning mehmon kelsagina ochilishi haqida ham ishora bor. Demak, topishmoqda asosan ikki tushunchaga urg‘u berilgan. Birinchisi, “uy”, bu qovunni o‘zida yashirgan. Ikkinchisi “uch ko‘rpacha” bu qovunning ichidagi uchta tuxum pattasi. Uchinchi yordamchi jumboq bu predmetning oziq-ovqatga aloqadorligidir.

Donli o‘simliklar haqida to‘qilgan topishmoqlar orasida bug‘doyga aloqador namunalar e‘tiborni jalb qiladi. Dehqonchilik madaniyati yuzaga kelib, bug‘doy kashf etilgandan keyin insoniyat hayotida jiddiy o‘zgarish bo‘lgani shubhasiz. Chunki, inson hayotini nonsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek topishmoqlari orasidagi quyidagi topishmoq bunga isbot bo‘la oladi:

Hamma yog‘i qiltiq,

Hamma unga intiq.

Quyidagi topishmoqda esa bug‘doy to‘la jumboqlangan:

O‘zi ariq,

Rangi sariq,

Yuzi qizil,

Boshi qiltiq. (Topishmoqlar, 90-bet).

Turkman xalqi orasida yaratilgan topishmoqlarda bug‘doyning yana boshqa xosiyatlari jumboqlanadi:

Bir chibig-a, bir chibik,

Bir chibikda muň chibik,

Muň chibikda xəurtge,

Xəvurtgede yumurtga. (Edigenim edi yildiz, II kitob, 65-bet).

Qoraqalpoq variantlaridagi tasvirlarda ixchamlik bo‘rtib turadi:

Uzin boyli sarilar,

Qoltig‘inda nani bar.

Qarni jariq qayiqsha. (Qaraqalpaq folklori, III tom, 86-bet).

O'zbek variantining to'rt misrasida to'rtta jumboq yashiringan. Birinchi misradagi "ariq" so'zi bug'doyning tanasidagi uzun kesak izni, "sariq" o'simlik poyasini, "qizil" donning o'zini, "qiltiq" boshoqdagi ignasimon o'simtalarni anglatadi.

Turkman variantida ham bug'doyga xos xususiyatlarni tasvirlash e'tiborni tortadi. "Bir chibiq" bug'doyning dastlabki unib chiqishi, ming chibiq" uning shoxalab ketishi, uchinchi misradagi "xourtge" qobiq, uning ichidagi "yumurtga" bug'doy donasidir.

Qoraqalpoq variantidagi "sarilar» bug'doy poyasi, "non" bug'doyning o'zidir. Ikkinchi variantdagi "qayiqcha" bug'doy tanasidagi kesik izdir.

Topishmoqlarning barcha variantlarida bug'doyga xos asosiy xususiyatlar turlicha yondoshuvlar bilan o'zining yaqqol ifodasini topgan. Binobarin, ma'nodosh topishmoqlarda shunday xususiyatlar borki, muayyan bir predmetni jumboqlashda har bir xalq o'z tafakkur doirasi, turmush tajribalari, mahalliy muhitga xos o'zgachaliklar nuqtai nazaridan yondoshadi. Shu sababli har bir xalqqa tegishli topishmoqda metaforalar obykti o'zgaradi. Shu bilan birga bir predmet atrofida fikrlashda umumiy tipologik xususiyatlar ham o'zini namoyon qilib turadi. Bu hodisa o'sha predmetning inson hayotida tutgan o'rni bilan uzviy bog'liqdir.

XULOSA

Turkiy xalqlarning qadimgi genetik aloqalari, til, din va madaniy sohadagi umumiylik ularning folklor asarlarida, xususan topishmoqlarida ham o'zining yaqqol ifodasini topgan. Turkiy xalqlarning yagona til doirasida o'xshash hayot jarayonida ro'yobga chiqargan badiiy tafakkur durdonalari umumturkiy merosni yuzaga keltirgan. Bu davrlarda yaratilgan topishmoqlarda aksariyat hollarda yagona mavzu, yagona kompozitsiya, yagona metafora va yagona g'oya mujassamlashgan.

Umumturkiy hayot umumturkiy madaniyatni vujudga keltirgan. Insonlarning idrok qilishi mushtaraklik kasb etganligi sababli tabiat hodisalariga munosabat, ular haqida fikrlash va xulosa chiqarishda umumiylik hukm surgan va bu hodisa og'zaki ijodiyotning topishmoq janrida ham o'zining badiiy ifodasiga ega bo'lgan. Biz tahlil qilgan adekvat topishmoqlarning qadimiy ildizlari ana shu hayot tarzining mahsullaridir. Bu namunalar kompozitsion ixcham va konkret metaforaga ega.

Adekvat topishmoqlarning mavzu doirasi tabiat hodisalari (shamol, izg'irin, qor, chaqmoq, bulut); o'simlik va hayvonot olami (qushlar, baliqlar, qamish); dastlabki dehqonchilik mahsulotlari (sabzi, piyoz, sholg'om); turli xo'jalik asbob-uskunolari (tandir, qozon-tovoq, ko'rpa-to'shak); turli ovqatliklar, insonning turli a'zolari, soyasi, akssado va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu topishmoqlar haqida deyarlik bir xil tasavvur orqali xulosalar chiqarilgan. Shunisi ham borki, bu davrlarga va bu mavzularga oid topishmoqlar qarindoshligi bo'lmagan xalqlar ijodida ham adekvatlik kasb etadi. Bu hodisa umuminsoniy turmush tarzi va tafakkuridagi o'xshashliklar hosilasidir.

Genetik aloqadorlikka ega bo'lgan xalqlarning hayotida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning o'zgarishi, siyosiy hayotdagi turli qarashlarning yuzaga kelishi, kishilarda hayotiy tajribalarning orta borishi, ishlab chiqarish qurollarining takomillashuvi insoniyat tafakkurining taraqqiy qilishiga olib keldi. Bu esa qardosh xalqlar hayotida milliy o'ziga xoslikning shakllanishiga olib keldi. Milliy ongning

shakllanishi va taraqqiyot milliy mushohadaning yangi qirralarini namoyon qiladi. O'sha jarayonda paydo bo'lgan topishmoqlarda bu holat o'z aksini topa boradi. Bitta predmetga nisbatan turlicha qarashlar paydo bo'lib, hududiy joylashish, tabiiy sharoitlarning o'zgachaligi o'sha jarayonda o'ziga xos metaforalarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Natijada bir mazmun atrofida turlicha tasvir, turlicha ifodaga ega bo'lgan namunalar paydo bo'ladi.

Ovchilik va chorvachilikdan dehqonchilik madaniyatiga erishish, hunarmandchilikning yuzaga kelishi ma'naviy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Turli mavzularda yaratilgan topishmoqlarda inson hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish o'z aksini topa bordi. Bu holat bitta predmet haqida turli timsollarning paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi. Masalan, inson tishi haqida yaratilgan topishmoqda unga nisbatan ishlatilgan metaforalar har qaysi xalqda har xil obyektni o'z jismiga yashiradi. O'zbek topishmog'idagi metaforada hunarmandchilikning, turkman matalida chorvachilikning, qoraqalpoq jumbog'ida ovchilikning kuchli ta'siri o'zini namoyon qilib turadi.

Xalqlar millat sifatida shakllangandan keyin ular hayotidagi yashash tarzi, kasb mashg'ulotlari o'zgarishga uchrab, barcha sohalarda differentsiatsiyalashish kuchaya bordi. Har bir millatda o'ziga xos yangi an'analar paydo bo'la boshladi. Millatlararo madaniy-iqtisodiy aloqalardan qat'iy nazar, har bir millatda o'ziga xoslik tobora ustuvorlik kasb eta bordi. Bu o'ziga xos hayot tarzi ma'naviy hayotda, xususan topishmoqlarning yuzaga kelishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Har bir millatga xos, jiddiy alohidaliklarga ega bo'lgan topishmoq namunalari yuzaga kela boshladi. Bular asosan kiyinish madaniyati, taomlar, uy-ro'zg'orga oid anjomlar va boshqa narsalarga nisbatan ishlatilgan metaforalarda namoyon bo'la boshladi.

Xususiy topishmoqlarning paydo bo'lishida mintaqaviy o'ziga xoslik bilan xalqning kasbiy mashg'ulotlari, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi yo'nalishlardan qaysi birining ustuvorlik qilishi asosiy rol o'ynadi.

O'zbekning palovi, turkmanning tuydugi, qoraqalpoqning shubati haqida

paydo bo'lgan topishmoqlarni faqat o'z millatining bisotidangina izlab topish mumkin.

Binobarin, xalq badiiy tafakkurining hosilasi o'laroq ro'yobga chiqadigan topishmoq janrida albatta o'z yaratuvchi ijodkorining milliy ruhi o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: O'zbekiston, 2008.
2. Abdullayev J.X. O'zbek topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – T., 1993.
3. Alimov A. Jumbaqlardan geypara tarixiy baylanislari mas'alesine // Vestnik Karakalpakskogo otd. AN.RUz. 1967, – № 3-4.
4. Alimov A. Qaraqalpaq jumboqlarini janrliq o'zeshelikleri // Vestnik KKO AN RUz. – №1, 1972.
5. Alimov A. Jumbaqar. – Nøkis: Qaraqalpaqstan, 1963.
6. Alimov A. Qaraqalpaq jumbaqarini tarixiy tamirlari // Vestnik Karakalpakskogo otd. AN RUz., 1972. – № 1.
7. Baymiradov A. Edigenim edi yildiz. – Ashgabat: Turkmenistan, 1989.
8. Beg`ubor qalb sadosi. – Urganch: Universitet, 2003.
9. Qarriyev B.A. Turkmen matallari // Sovet edebiyati, 1946. – № 1-2.
10. Dana so'zler. – Ashgabat: Turkmenistan, 1978.
11. Gurbanov G. Turkmen xalik matallari. – Charjev, 1960.
12. Jo`rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. –T.: Fan, 1995.
13. Jo`rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: Fan, 2009.
14. Jo`rayeva M. Bir topishmoqning tarixiy asosi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. – № 5.
15. Jo`rayeva M. "Kodeks-kumanikus"dagi topishmoqlar va ularning o'zbek folkloridagi variantlari // O'zbek folklorshunosligi masalalari. –T.: Fan, 2010.
16. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnografiyasi. – T.: Fan, 1985.
17. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –T.: O`qituvchi, 1990.
18. Mirzayev T. Topishmoqlar // O'zbek og`zaki poetik ijodi. –T.: O`qituvchi, 1990.
19. Maqsetov Q.M., Tøjimuratov A. Qaraqalpaq folklori. – Nøkis: Qaraqalpaqstan, 1979.

20. Maqsetov Q. Qaraqalpaq folkloristikasi. – Nökis: Qaraqalpaqstan, 1989.
21. Ro`zimboyev S., Sobirova N. “Avesto” mifologiyasi va Xorazm folklori. – Urganch: Xorazm ma`mun akademiyasi, 2001.
22. Ro`zimboyev S. «Avesto»ning Xorazm dostonlaridagi izlari / «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o`rni. – T.: Fan, 2001.
23. Ro`zimboyev S. Xorazmdagi totemlar haqida // “Tafakkur ziyosi”. XVIII t. – Urganch: Universitet, 2008.
24. Raxmanov N. Orxono-Eniseyskiye pamyatniki i tyurkskiye eposi. Avtoref. dokt. diss. – T., 1991.
25. Saparniyozova M. O`zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – T., 2005.
26. Salayev F., Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so`zligi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
27. Salomov G`. Til va tarjima. – T.: Fan, 1966.
28. Safarov O. O`zbek bolalar poetik folklori. –T.: O`qituvchi, 1985.
29. So`ngso`z // Topishmoqlar. – T.: Adabiyot va san`at, 1981.
30. Topishmoqlar. –T.: Adabiyot va san`at, 1981.
31. Topishmoqlarda epitet // O`zbek tili va adabiyoti, 1988. – №1.
32. Uyg`ur xəliq eg`iz ixxadiyiti. – Almuta: Nauka, 1983.
33. Folklor evenkov Yakutii. – L.: Nauka, 1971.
34. Xorazm xazinası. – Urganch: Xorazm, 1996.
35. Xorazm folklori. XI tom. – Urganch: Xorazm, 2010.
36. O`zbek xalq maqollari. –T.: Fan, 1978.
37. Qobulova U. Topishmoqlarning struktur tahlili // O`zbek tili va adabiyoti. 2005, – № 4.
38. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differensemalar munosabati (o`zbek topishmoqlari misolida): Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – T., 2007.
39. Qobuljonova G. Metaforalarning sistemaviy lisoniy talqini (O`zbek xalq topishmoqlari misolida): Filol. fanlari nomz. diss avtoref. – T., 2006.

40. Qaraqalpaq folklori. III tom. – Nəkis, 1978.
41. Qaraqalpaq jumbaqlari. – Nəkis: Qaraqalpaqstan, 1970.
42. Husainova Z. Topishmoq terminlari // O`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960. – № 3.
43. Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –T.: Fan, 1966.
44. Husainova Z. Topishmoq terminlari / O`zbek xalq ijodi. – T.: Fan, 1967.
45. Xalq topishmoqlaridagi bir badiiy vosita haqida // O`zbek tili va adabiyoti, 1984. – № 4.
46. Egamov X. Turkiy xalqlar ertakchilik an`analari aloqalari tarixidan ocherklar. –T.: O`qituvchi, 1982.
47. [http:// ziyonet.uz](http://ziyonet.uz) internet sayti.
48. [http:// e-adabiyot.uz](http://e-adabiyot.uz) internet sayti.

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI UMUMIY (ADEKVAT) VA XUSUSIY TOPISHMOQLAR	
1.1. Adekvat topishmoqlar.....	5
1.2. Xususiyl topishmoqlar.....	20
II BOB. TURKIY XALQLAR IJODIDAGI MA'NODOSH – SINONIMIK TOPISHMOQLAR	
2.1. Ma'nodosh topishmoqlarning asosiy xususiyatlari.....	32
2.2. Hayvonlar, qushlar va hasharotlar haqida yaratilgan topishmoqlar.....	43
2.3. Mevalar, poliz va turli ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlar.....	50
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	60